


Sulaymonov B.A., Umurzoqov E.U.,
Nasirov B.S., Xikmatov Sh.T.

PARAZIT BEGONA O'TLAR BIOEKOLOGIYASI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI



O'quv qo'llanma

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

**Sulaymonov B.A., Umurzoqov E.U.,
Nasirov B.S., Xikmatov Sh.T.**

**PARAZIT BEGONA O'TLAR BIOEKOLOGIYASI VA ULARGA QARSHI
KURASH CHORALARI**

O'quv qo'llanma

UO'K 632.51(072)

KBK 44.5

S89

F 21

Sulaymonov B.A., Nasirov B.S., Umurzoqov E.U., Xikmatov Sh.T “Parazit begona o'tlar bioekologiyasi va ularga qarshi kurash choraları”. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022. – 116 b.

O'quv qo'llanmada O'zbekiston sharoitida parazit begona o'tlar -shumg'iya va zarpechakning bioekologiyasi, morfologiyasi va unga qarshi kurash usullari bayon etilgan. Parazit begona o'tlarning o'sishi, rivojlanishi va xo'jayin-o'simlik bilan munosabati hamda uningmadaniy ekinlarga zarari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Parazit begona o'tlarga qarshi kurash usullari ham yoritilgan.

O'quv qo'llanma agronomiya ixtisosligi magistr va bakalavrlar, ilmiy xodimlar, agronomlar va qishloq xo'jaligi mutuxassislariiga mo'ljallangan.


UO'K 631.6(073)

KBK 40.6

Taqrizchilar:

PSUYAITI laboratoriya mudiriq.x.f.d (Ds)M.Ziyatov

ToshDAU O'simliklarni himoya qilish kafedrasi professori, q.x.f.d (Ds)A.Anorbaev



ISBN 978-9943-8321-5-2

© Sulaymonov B.A., Nasirov B.S., Umurzoqov E.U., Xikmatov Sh.T.. 2022.

© "Lesson Press" nashriyoti, 2022.

Mundarija

Kirish	4
Shumg‘iyadoshlarning sistematikasi va tarqalishi	6
Shumg‘iya bioekologiyasi	13
Shumg‘yaning fiziologik hususiyatlari	23
Shumg‘yaning biologik hususiyatlaridan unga qarshi kurashda foydalanish	29
Shumg‘yaning o‘sishi va rivojlanishi	34
Shumg‘yaning ekinlar hosili va sifatiga ta’siri	42
Shumg‘iyaga qarshi biologik usulda kurashish	49
Fitomiza pashshasini shumg‘iyaga qarshi qo‘llash	59
Shumg‘iyaga qarshi biologik usulda kurash samaradorligini oshirish	63
Zarpechakning turlari va ekinlarga ixtisoslashuvi	67
Zarpechakning qishloq xo‘jalik ekinlari va manzarali o‘simliklarda tarqalgan turlari	79
Zarpechak urug‘lari yetilish darajasi vaunib chiqishi	82
Zarpechak urug‘larini unishiga saqlanish sharoiti va havo haroratini ta’siri	88
Zarpechak urug‘larinig unib chiqishini tuproq chuqurligi va namligiga bog‘liqligi ..	99
Bedapoyadagi zarpechakga qarshi gerbitsidlarni samaradorligi	102
Begona o‘tlardagi zarpechakka qarshi gerbitsidlarni qo‘llash	107
Begona o‘tlarga qarshi agrotexnik tadbirlar	110
ADABIYOTLAR	113

Kirish

“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da qishloq xo‘jaligini modyernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo‘yicha vazifalar belgilangan.

Qishloq xo‘jaligida tarkibyo‘zgartirishlarni chiqurlashtirish orqali ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishslash sanoatini xom ashyo bilan uzlusiz ta’minlash orqali mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish istiqbolda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan eng muhim vazifalardan sanaladi.

2016-2020 yillarda paxta xom ashysi etishtiriladigan maydonlarni 170,5 ming va sug‘oriladigan g‘alla maydonlarini 50 ming gektarga qisqartirish hisobidan kartoshka maydonini 36 ming, sabzavotlar maydonini 91 ming, intensiv bog‘lar maydonini 18 ming, ozuqa ekinlarini 50,3 ming, moyli ekinlarni 14 ming va uzumzorlarni 11,2 ming gektarga kengaytirish bilan bog‘liq ekin maydonlarini yanada optimallashtirish ishlari amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda ekinlarga ishlov berishning ilg‘or agrotexnologiyalarini, yuqori unumidorlikka ega texnika va mashinalarni hamda sug‘orishning zamonaviy usullarini qo‘llash natijasida ekinlar hosildorligini kartoshkada 218,9 dan 230,5 s/ga (+11,6), sabzavotlarda 277,1 dan 294,0 s/ga (+16,9) oshirish ko‘zda tutilgan.

Ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish va hosildorlikni oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish hajmini sezilarli darajada oshishiga olib keladi. 2016-2020 yillar davomida boshqoli don etishtirish hajmi 1195,0 ming, kartoshka 931,0 ming, sabzavotlar 3002,2 ming tonnaga ko‘payadi va mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga zamin yaratadi.

Ekinzorlardagi mavjud ekologik sharoitning tubdan o‘zgarishi, ya ni tuproqda, o‘simlik qatlamida va barcha mikroorganizmlar tarkibidagi o‘zgarishlar ekinlar hosilini pasayishiga, mahsulot sisatining yomonlashishiga olib kelmoqda. Ular orasidagi raqobatlar tuproqdagisi mineral, organik moddalarga, suvgaga yorug‘likgabog‘lganehtiyojiasosida vujudgakelibqolmasdan,balkiturlikasallikvahasharotlarningsaqlanishida,tarqalishida, hamdayangiareallarinihosilqilishidanamoyonbo‘lmoqda.

O‘simliklarning parazit begona o‘tlari hosil sifati va miqdori salbiy ta’sir ko‘rsatib qolmasdan, balki ekinlarni butunlay nobud qiladi. Hozirgi ekologik sharoitda kasallangan o‘simlikdan olingan maxsulotlari niiste‘mol qilish insonlar salomatligi, xom ashylarini ishlab chiqarish jarayonida foydalanish tavar sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Qishloq xo‘jaligi o‘simliklarni zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan ekologik sof oziq ovqat mahsulotlarini etishtirishga, ekinlarni kasalliklarga qarshi samarali kurash choralarini jahon andozalari asosida tashkil qilishga alohida e’tibor berilgan.

Buning uchun qishloq xo‘jaligida barcha agroteknika va agrokimyo chora-tadbirlari ilm-fan tavsiyanomalariga va ilg‘or tajribalarga muvosiq o‘tkazish, begona o‘tlarga, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish choralarini joriy qilish muommolarini echish mutloqo yangicha yondoshuv bo‘lishi kerakligini taqozo qiladi. O‘simliklarning hosildorliginikutarish, kasalliklarga chidamli navlarini yaratish, mahsulot sifatini yaxshilash asosida jahon andozalari talabi darajasiga erishish vazifasi belgilab berilgan.

Zamonaviy taddiqotlarning muhim yo‘nalishi qishloq ho‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli, inson salomatligiga salbiy ta’sir etmaydigan sof mahsulot olishga qaratilgan. Ushbu ko‘rsatkich turining kelib chiqishi va o‘stirilayotgan o‘simlikning sharoitiga bog‘liq. O‘simlikning o‘sishi va rivojlanishi parazit begona o‘tlarning o‘rni juda muhim. Ular orasida shumg‘iya (*Orobanche*) va zarpechak (*Cuscuta L.*) parazit begona o‘tlari bo‘lib, ular o‘simliklarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Parazit begona o‘tlar esa o‘z navbatida qulay sharoit vujudga kelishi bilan o‘zining arealini tezda kengaytira olishi, tuproqdagi har xil kimyoviy ifloslanishni, mexanik bosim, qirg‘oqchilik sharoitlariga moslashishi va jamoa ko‘rinishini tezda hosil qila olishi hamda, tuproqdagi ko‘plab zamburug‘lar va bakteriyalarga qarshi kurashish hususiyatiga ega.

Bugungi kunda kutilyotgan suv taqchilligi, hamda dunyo mamlakatlari moliyaviy-iqtisodiy inqirozini boshidan kechiryotgan bir paytda, Respublikamiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘paytirish, mavjud resurslardan to‘g‘ri foydalanish, ekinlarni parvarishlashning ilmiy asoslangan, takomillashgan agrotechnologiyalarini joriy etish, kam mablag‘ sarflab, yuqori va sifatli, raqobatga javob beradigan ekologik toza qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirish bugungi kuning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi. Ushbu o‘quv qo‘llanmasida O‘zbekistonda keng tarqalgan parazit begona o‘tlarning bioekologiyasi va ularga qarshi kurash usullari atroficha yoritilgan. Qo‘llanmani yaratishda mualliflarning tajriba ma’lumotlari va bu boradagi mamlakatimiz xorijiy olimlarning ma’lumotlari umumlashtirildi. Aminmizki, ushbu kitob agronomiya yo‘nalishidagi bakalavr va magistrlerga zarur qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Shumg'iyadoshlarning sistematikasi va tarqalishi

Shumg'iyadoshlar oilasi 200 (ayrim manbalarda 150) turdan iborat. Ular 15 ta avlodga birlashgan bo'lib, asosan er sharining shimoliy yarim sharida, issiq va mo'‘tadil iqlimi hududlarda keng tarqalgan.

Qadimgi grek botanigi Feofrast (eramizdan oldin 372-287 y.) *Orobanche* (grekcha *Orobus* – yasmiq va *anche* bug‘ish) nomini o’simlik uchun qo’llagan. U yasmiq (chehevitsa) o’simligi poyasiga o’ralib, yopishib quritganligini yozgan. XV1 asr oxirida tabiatshunos Metioli grek botanigi Feofrast nomlagan *Orobanche* boshqa parazit bo‘lib *Cuscuta* parazitiga to‘g‘ri keladi. Lekin *Orobanche* nomi shumg‘iya turining nomi bo‘lib qoldi.

Shumg‘iya (ayrim manbalarda ilono‘ti deb ham ataladi) - obligat parazit, yuksak gulli o’simliklarning Orobanchaceae Vent. oilasiga mansub bo‘lib, 15 avloddan iborat bo‘lib, asosan dunyoning shimoliy yarim sharida tarqalgan. *Orobanche* L. avlod 150 ta turga ega bo‘lib, eng ko‘p arealda tarqalgan va juda ko‘p xo‘jayin-o’simliklarda rivojlanadi (Musselman, 1980).

Orobanchaceae Vent. oilasiga oid turlar *Orobanche*, *Phtlipanche*, *Aeginetia* va *Christisonia* avlodiga mansub bo‘lib, madaniy o’simliklar ildizida parazitlik qiladi va qishloq xo‘jalik ekinlariga katta zarar etkazadi (Terexin, 1988).

Shumg‘iyadoshlar - ixtisoslashgan parazit bo‘lib, 42 oilaga mansub yopiq urug‘li va ochiq urug‘li o’simliklarda parazitlik qilib hayot kechiradi (Beylin, 1968, Kabulov, 1978).

Parazit o‘z faoliyati davomida fiziologik va morfologik belgilarni o‘zgartirish qobiliyatiga ega (Taxtdadyan, 1966).

Orobanche L. avlodiga mansub vakillar uchun umumiy belgi bu shakli o‘zgargan ildiz tizimi bo‘lib, o‘suv davrida gaustoriyaga aylangan, parazit xo‘jayin-o’simlik ildiz tizimidan ular orqali oziq moddalar va suvni so‘rib oladi.

Barglari qobiqga aylanib, fotosintez faoliyatini yo‘qotgan va uning o’simtasidagi kurtaklarini himoya qilish vazifasini bajaradi (Beylin, 1968; Terexin, 1977).

Madaniy ekinlarga ko‘p zarar keltiradigan shumg‘ija turlaridan:

Orobanche cumana Wallr.

*Orobanche ramosa*L.

Orobanche aegyptiaca Pers.

Orobanche mutelii F. Schultz.

Orobanche lutea Baumg.

Shumg‘iyaning ushbu turlari ma’lum turdag'i o’simliklari bitta turida, bir necha turida yoki ko‘pgina turlarida parazitlik qiladi.

Markaziy Osiyoda shumg‘yaning 18 turi keng tarqalganligini B.A.Fedhenko (1915) aniqlagan. I.V.Pavlov tomonidan (1938) ushbu ruyxat yana bir tur – *Orobanche lanugiosa* G. Beck – tarqoq shumg‘iya bilan to‘ldirilgan. N.V.Novopokrovskiy (1954) Turkmanistonda tarqalgan shumg‘iya turlarini ruyxatini tuzgan va ularni to‘liq tavsifini keltirgan (D.T.Qobulov buyicha, 1978).

N.F.Goncharov (1939), N.F.Goncharov va Yu.S.Grigurevlar (1958) Iojikistonda 13 turdag'i shumg‘iya tarqalganligini xabar berishgan. A.G.Zagorovskiy (1956) ma'lumotlariga ko‘ra Qirg‘izistonda shumg‘yaning 6 turi tarqalgan. Bundan tashqari I.G.Sudnitsina shumg‘yaning 75 turi haqidagi ma'lumotlarni qayd etgan. Bu turlardan ayrimlari O‘zbekistonda ham uchraydi.

Zarafshon basseynda K.Z.Zokirov (1958) yuqori o’simliklarning 2800 turini tavsifini bergan, ushbu tavsifda 13 turdag'i shumg‘iya tavsisi yoritilgan.

A.Ya.Butkov (1961) O‘zbekiston uchun 12 turdag'i shumg‘iyani sanab o‘tadi, ularni ayrimlari ilgari qayd etilgan bo‘lib, bundan tashqari yangi tur - *Orobanche pachypoda* Butk. tavsifini keltirgan.

O‘zbekiston florasida tarqalgan shumg‘iya turlari J.T.Qobulov (1978) tomonidan o‘rganilgan va uni tur tarkibi qayd etilgan. (1-jadval).

1 - jadval

O‘zbekistonda tarqalgan shumg‘iyani tur tarkibi

(J.T.Qobulov ma lumoti, 1978)

	Shumg‘iya turi	Muallif(lar)
1	<i>Orobancheuralensis</i> G.Beck	K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov, A.YA.Butkov
2	<i>Or. caesia</i> Rchb.	B.A.Fedhenko
3	<i>Or. langinosa</i> Gontsch.	K.Z.Zakirov, N.V.Pavlov, D.T.Kabulov
4	<i>Or. persica</i> G.Beck.	K.Z.Zakirov
5	<i>Or. aegyptiaca</i> Pers.	B.A.Fedchenko, N.V.Pavlov, N.V.Novopokrovskiy, N.V.Goncharov, Yu.S.Grigurev, A.M.Lapin, B.F.Fedchenko, K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov
6	<i>Or. orientalis</i> G. Beck.	N.V.Goncharov, Yu.S.Grigurev, K.Z.Zakirov, D.T. Kabulov
7	<i>Or. coelestis</i> Boiss.et Reut.	N.V. Goncharov, Yu.S. Grigorev, A.Ya.Butkov
8	<i>Or. pachypoda</i> Butk.	A.Ya.Butkov
9	<i>Or. sogdiana</i> Novopokr.	K.Z.Zakirov

10	Or. ramosa L.	B.A.Fedchenko, N.V.Pavlov
11	Or. ccerulescens Steph.	B.A.Fedchenko, N.V.Pavlov
12	Or. amoena C.A.M.	B.A.Fedchenko, N.V.Pavlov, N.V.Novopokrovskiy, Yu.S.Grigorev, N.V.Goncharov, K.Z. Zakirov, D.T.Kabulov, A.YA. Butkov.
13	Or. inconspicua Gontsch.	K.Z. Zakirov, D.T.Kabulov, A.YA. Butkov.
14	Or. cernua Loefl.	B.A.Fedchenko, N.V.Novopokrovskiy, A.M.Lapin, K.Z.Zakirov, D.T. Kabulov, A.YA.Butkov.
15	Or. cumana Wallr.	N.V.Novopokrovskiy, N.V.Goncharov, Yu.S.Grigorev, K.Z.Zakirov, D.T. Kabulov, A.YA.Butkov.
17	Or. camptolepis Boiss.	N.V.Novopokrovskiy,
18	Or. Gontscharovii Novopokr.	A.Ya.Butkov.
19	Or. sulphurea Gontsch.	A.Ya.Butkov.
20	Or. Kotschyii Reut.	B.A.Fedchenko, N.V.Novopokrovskiy, K.Z.Zakirov, D.T. Kabulov, A.Ya.Butkov.
21	Or. gigantea (G.Beck.) Gontsch.	K.Z.Zakirov, D.T. Kabulov, A.Ya.Butkov.
22	Or. spectabilis Reut ssp. villosula Novopokr.	K.Z.Zakirov
23	Or. bucharica Novopokr.	K.Z.Zakirov
24	Or. lutea Baumg.	N.V.Novopokrovskiy
25	Or. caryophyllacea Smith.	B.A.Fedchenko
26	Or. alba Steph.	V.N.Goncharov, Yu.S.Grigorev
27	Or. crenata Torsk.	B.A.Fedchenko
28	Or. major L.	B.A.Fedchenko

Shu bilan birga, olim tomonidan shumg‘iyani Markaziy Osiyoda tarqalgan turlari ham keltirilgan. (2-jadval).

Markaziy Osiyoda tarqalgan shumg'iya turlari

(J.T.Qobulov ma'lumoti, 1978)

	Shumg'iya turi	Tarqalgan joyi	Muallif(lar)
1	Orobanche uralensis G.Beck	O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston	K.Z.Zakirov, D.T. Kabulov, A.Ya.Butkov, N.N.Svelov, I.G.Sudnitsina, A.O.Orazova, B.A.Fedchenko
2	Or. caesia Rchb.	O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston	K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov, B.A.Fedchenko, N.V.Goncharov, Yu.S.Grigorev, I.G.Sudnitsina, N.V.Pavlov, A.O.Orazova
3	Or. areharia Borkh.	Qozog'iston	A.O.Orazova, N.V.Pavlov, N.N.Svelov, B.A.Fedchenko
4	Or. Androssovii Novopokr.	Turkmaniston	N.V.Novopokrovskiy, N.N.Svelov
5	Or. Karatavica Pavl.	Qozog'iston,	A.O.Orazova
6	Or. coelestis Boiss et Reut.	Markaziy Osiyo Respublikalari	N.A.Goncharov, A.Ya.Butikov, A.Ya.Butkov, N.V.Novopokrovskiy, I.G.Sudnitsina
7	Or. Borissovae Novopokr.	Turkmaniston	N.V.Novopokrovskiy
8	Or. Kelleri Novopokr.	Qozog'iston	A.O.Orazova
9	Or. aegyptiaca Pers.	Markaziy Osiyo Respublikalari	B.A. Fedchenko, N.V.Novopokrovskiy, N.A.Goncharov, Yu.S.Grigorev, K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov,

			A.O.Orazova N.V. Pavlov, I.G.Sudnitsina
10	Or. brachypoda Novopokr.	Qirg'iziston, (Turkiston tizmasi)	N.V.Novopokrovskiy, N.N.Svelov, I.G.Sudnitsina
11	Or. orientalis G.Beck.	O'zbekiston. Tojikiston	N.V.Goncharov, Yu.S.Grigorev, K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov
12	Or. sogdiana Novopokr.	O'zbekiston, Tojikiston	N.V.Goncharov, Yu.S.Grigorev, K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov
13	Or. nana Noe.	Tojikiston	N.V.Goncharov, Yu.S.Grigorev
14	Or. ramosa B.	Qozog'iston	A.O.Orazova. N.V.Pavlov
15	Or. coerulescens Steph.	Qirg'iziston, Qozog'iston	N. V. Novopokrovskiy, N.T.Svelov, A.O. Orazova, N.V.Pavlov
16	Or. Korschinskyi Novopokr.	Qozog'iston	A.O.Orazova
17	Or. pachypoda Butk.	O'zbekiston	A.Ya.Butkov
18	Or. amoena C.A.M.	Markaziy Osiyo Respublikalari va Qozog'iston	B.A. Fedchenko, N.V.Novopokrovskiy, N.V.Goncharov, Yu.S.Grigorev, K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov, N.V.Pavlov, A.O.Orazova, I.G.Sudnitsina
19	Or. amoenoides Kab.	O'zbekiston	D.T.Kabulov
20	Or. areana Gontsch.	Turkmaniston	N.V.Goncharov, N.V.Novopokrovskiy
21	Or. Hansii Kerner.	Markaziy OsiyoR espulikalari va	K.Z.Zakirov, D.I.Kabulov,

		Qozog‘iston	A.Ya.Butkov, N.V.Novopokrovskiy, Yu.S.Grigorev, N.V.Goncharov, I.G.Sudnitsina, A.O.Oranzova
22	Or. glandulosa Kab.	O‘zbekistan	D.T.Kabulov
23	Or. Clarkei Hook.	Turkmaniston	N.V. Novopokrovskiy, N.N.Svelov
24	Or. solenanthi Novopokr.	Tojikiston	D.T.Kabulov
25	Or. sulphurea Gontsck.	O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston	A.YA.Butkov, D.T.Kabulov, Yu.S.Grigorev,N.V. Goncharov, I.G. Sudnitsina
26	Or. pallid Kab.	O‘zbekiston	D.T.Kabulov
27	Or. cernua Loefl.	Markaziy Osiyo Respublikalari va Qozog‘iston	B.A.Fedchenko, N.V.Novopokrovskiy, K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov, A.Ya.Butkov, I.G.Sudnitsina, A.O.Oranzova
28	Or. Cumana Wallr.	Markaziy Osiyo Respublikalari va Qozog‘iston	B.A.Fedchenko, N.V.Novopokrovskiy, N.V.Goncharov, Yu.S.Grigorev, K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov, N.V.Pavlov, A.O.Orozova, I.G.Sudnitsina
29	Or. tenella Kab.	O‘zbekiston	D.T.Kabulov
30	Or. ramosissima Kab.	O‘zbekiston	D.T.Kabulov
31	Or. brevidens Novopokr.	Qozog‘iston	A.O.Orozova
32	Or.solmsii Clarke Novopokr	Turkmaniston	N.V.Novopokrovskiy
33	Or. badchysensis	Turkmaniston	N.V.Novopokrovskiy

	Novopokr.		
34	<i>Or. camptolepis</i> Boiss. et Reus.	O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston	N.V.Goncharov, Yu.S.Grigurev, N.V.Novopokrovskiy, A.YA.Bultakov, I.G.Sudnitsina, A.O.Orzova
35	<i>Or. kotschyi</i> Reut.	Markaziy Osiyo Respublikalari	B.A.Fedchenko, N.V.Novopokrovskiy, N.V.Goncharov, K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov, I.G.Sudnitsina, A.O.Orozova
36	<i>Or. gidantea</i> (G.Beck) Gontsch.	O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston	K.Z.Zakirov, D.T.Kabulov, A.YA.Butakov, N.V.Gancharov, Yu.S.Grigurev, I.G.Sudnitsina, A.O.Orzova
37	<i>Or. sordida</i> C.A.M.	Qirg'iziston, Qozog'iston	B.A.Fedchenko, I.G.Sudnitsina, A.O.Orzova
38	<i>Or. lutea</i> Baumg.	Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston	N.V.Goncharov, Yu.S.Grigurev, I.G.Sudnitsina
39	<i>Or. linezevskyi</i> Novopokr.	Tojikiston	N.V.Novopokrovskiy
40	<i>Or. vulgaris</i> Poir.	Turkmaniston, Qozog'iston	N.V.Novopokrovskiy, N.V.Pavlov, A.O.Orzova
41	<i>Or. alba</i> Steph.	Tojikiston, Turkmaniston	N. V.Goncharov, Yu.S.Grigurev, N.V.Novopokrovskiy
42	<i>Or. pallidiflora</i> Vimm. et Grab.	Qozog'iston	A.O.Orzova
43	<i>Or. Grigorjevii</i> Novopokr.	Tojikiston, Qirg'iziston,	N.V.Novopokrovskiy, I.G.Sudnitsina

44	Or. major L.	Qirg'iziston, Qozog'iston	I.G.Sudnitsina, N.V.Pavlov, A.O.Orazova
45	Or. Krylowii G.Beck.	Qirg'iziston, Qozog'iston	I.G.Sudnitsina, A.O.Orazova
46	Or. alsatica Kirschl.	Qozog'iston, Qirg'iziston	I.G.Sudnitsina, N.V.Pavlov, A.O.Orazova
47	Or. rosea Tzvel.	Turkmaniston	N.N.Svelov

Shumg'iya - parazit begona o'tning avlodи avtotrof o'simlik bo'lib,yashil barglar va ildiz tizimiga ega bo'lgan. Juda ko'p yillar mobaynida evolyusiya jarayonida o'simlik parazit hayot kechirishga moslasha borgan, uning barglari kichrayib, xlorofillni yo'qtotgan, juda kichik sariq yoki och siyoh rang tusdagи barg qobig'i qolgan.Ildizlari esa qisqa etli tolaga aylanib, xo'jayin-o'simlik ildizlaridan oziq moddalarni so'rishga moslashgan. Uning o'zgargan poyasi va turli xil tusdagи gullari saqlanib qolgan. Shumg'iya o'simligida uzoq yillar evolyusiyava tashqi muhitga moslashish jarayonlarida bir qator biologik hususiyatlar shakllangan:

- tashqi muhit sharoitiga juda yuqorimoslashish qobiliyat;
- yuqori urug' hosil qilish koeffitsientiga (bitta o'simlik poyasida 10 - 15 ming dona urug' hosil bo'ladi);
- urug'lari 10 – 15 yil tuproqda unuvchanligini saqlagan holda saqlanishi;
- xo'jayin - o'simlik ildiz tizimi chiqargan chiqitlar ta'sirida ma'lum tuproq sharoitida o'sish qobiliyat;
- juda ko'p madaniy va yovvoyi o'simliklar ildizida o'sishi;

Nazorat savollari:

1. *Shumg'iyaning tarqalish yo'llari.*
2. *Shumg'iyaning tashqi mixitga moslashuvchanligi.*
3. *Shumg'iyaning qanday turlarini bilasiz?*

Shumg'iya bioekologiyasi.

Shumg'iya ko'p yillik o'simliklarda parazitlik qilganda, xuddi ko'p yillik o'simlik sifatida o'z faoliyatini davom ettiradi. Agar xo'jayin-o'simlik nobud bo'lsa, u ham birga nobud bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, ko'p yillik o'simliklarda parazitlik qilgan shumg'iya vegetativ usulda ham ko'payish hususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Bunda ikkilamchi gaustoriyalarida (so'rg'ichlarida) kurtak o'simtasi hosil qilib, bu keyinroq ona o'simlikdan ajralib mustaqil parazitlik qila boshlaydi.

Bir yillik o'simliklarda esa xo'jayin - o'simlik nobud bo'lishi bilan parazit ham faoliyatini to'xtadi. O'zbekistonda keng tarqalgan misr shumg'iyanini gaustoriyalari ikki yoki ko'p yillik begona o'larda parazitlik qilib er tagida qishlab chiqganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni prof. J.T.Qobulov o'z ilmiy ishlarida keltirib o'tadi.

Efemer o'simliklarda parazitlik qilgan shumg'iya xo'jayin-o'simlik kabi qisqa umr ko'radi, ayrim hollarda gullash davrida yoki urug'lar hosil qilish davrida nobud bo'ladi.

Shumg'iyaning ko'p turlarida tashqi muhitga moslashishi (adaptatsiya) va polimorfizm juda keskin xarakterga ega bo'lganligi uchun ularda morfologik o'zgaruvchanlik kuchli bo'lisligi kuzatiladi.

O'zbekiston sharoitida shumg'iyaning morfoloqikbelgilari xo'jayin o'simlikga bog'liqligini prof. J.T.Qobulov rahbarligida Samarqand davlat universiteti olimlari tomonidan o'r ganilgan va uning natijalarini 3-jadval ma'lumotlarida keltirilgan.

3 -jadval

Misr shumg'iyanini morfoloqik belgilarini shakllanishini xo'jayin - o'simligiga bog'liqligi
(J.T.Qobulov, 1978)


Xo'jayin-o'simlik	Noya talanligi, sm	Gullagan nuyular soni, dona	Neva elementlari dona	Julining o'chiuni -m	Gufoسا donalari im
Qovun	43,0	19,3	352,2	2,9	2,5
Tarvuz	41,0	21,7	318,0	2,7	2,6
Osh qovoq	30,6	8,3	69,6	3,1	2,0
Bodring	40,6	13,6	209,8	3,1	4,0
Pomidor	38,4	14,8	217,4	2,8	1,8
Tamaki	36,2	12,4	198,6	2,6	1,7
Kungaboqar	37,4	14,4	143,6	2,4	2,4

Shumg'iyan sistematik (morphologik) belgilari turli kombinatsiyalarda bo'lib, xilma-xil shakllarni yaratadi. Bu shakllar avloddan-avlodga o'tmasligi, irlsiy modifikatsiya emasligini tadqiqotchi ta'kidlab o'tadi.

Shumg'iya bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlarda tadqiqotchi olimlar A.V.Zagorovskiy va J.T. Qobulov hamda ularning shogirdlari ilmiy tadqiqot ishlarida misr shumg'iyanini xo'jayin-o'simliklarda rivojlanishini o'rganishgan. Shumg'iya

urug‘i kurtagida juda kichik urug‘ (0,4-0,5 mm) joylashgan bo‘lib, ildiz va poyaga ajralmagan. Unda urug‘palla yo‘q va u bir gruh hujayralardan iborat. bu hujayralarni oziqlanish hujayralari o‘rab turadi. Urug‘ kurtak o‘sish jarayonida ham uni ildizi, poya va barglarni farqlash mumkin bo‘lmaydi. U ilonsimon ipga o‘xhash bo‘lib, nozik hujayralardan tashkil topgan . O‘sintani bir uchi urug‘ qobiq bilan qoplangan. Uni prof D.T. Qobulov poya qismi, unga qarama-qarshi bo‘lgan tamoni ildiz qismi deb atagan. Ipsimon urug‘ pastga qarab o‘sadi, uning uchi vintli chiziqqa o‘xhash bo‘lib, xo‘jayin-o‘simlik ildizini izlaydi. Agar ildiz topilmasa, u zaxira oziqdanfoydalanim turadi, oziq tugasa, o‘simta so‘liydi, qorayib qurib qoladi.Uning pastki qismi unga to‘g‘ri keladigan o‘simlik ildiz tizimiga jips bo‘lib oziq moddalarni so‘rib kengaya boradi. Uning uchki qismida ma‘lum vaqt urug‘ qobig‘i saqlanadi va vaqt o‘tishi bilan izsiz yo‘qoladi. Uning kengaygan qismi xo‘jayin-o‘simlik ildiz tizimiga mustahkam o‘rnashib, tugunlar va sugallardan iborat bo‘ladi.

Hosil bo‘lgan so‘gallardan uzun so‘rg‘ichlar o‘sib chiqadi va bu vaqtida xo‘jayin-o‘simlik ildizida yosh shumg‘iya yulduzli to‘g‘nag‘ichga (cho‘qmor) o‘xshab joylashadi.



I- rasm. Shumg‘iya parazitining hayot zanjiri: 1-xo‘jayin-o‘simlik ildiziga kirishi; 2-ildizda rivojlanishi; 3-tuproq yuza qismiga unib chiqishi; 4-gullashi; 5-urug‘ hosil qilishi.

So‘rg‘ichlardan biri ildiz po‘stlog‘i ichiga kiradi va o‘ssa boshlaydi,po‘stloq ichidagi xo‘jayralarni siljitim, ildizni qattiq qismigatomon harakatlana boshlaydi.

Shumg‘iya poyasida tomirlar rivojlanadi va u tomirlar xo‘jayin-o‘simlik ildizida joylashib olgan so‘rg‘ich orqali o‘simlik ildizi bilan ulanadi.Xo‘jayin-

o'simlik bilan parazit shumg'iyani ulangan joyida oq nilufar piyozboshiga o'xshash kurtak rivojlanadi. Undan yo'g'on poya o'sib chiqadi va u tuproq yuzasi tomon harakatlanadi va tuproq yuzasida gullayotgan boshoq chiqaradi (1 - rasm).

Shumg'iya xo'jayin-o'simlikildiz bilan birgalikda tunganaklar hosil qilib o'sa boshlaydi. Birgalikdagi yashash foaliyati shunchalik rivojlanadiki, unda xo'jayin-o'simlik ildiz po'stlog'i bilan shumg'iya po'stlog'i umuman birlashib ketadi. Shunday holat yuzaga keladiki, bunda shumg'iya shoxini go'yo xo'jayin - o'simlik hosil qilganday tasavvur hosil bo'ladi. Shumg'iya tanasining yon tomonlarida hosil bo'lgan yo'g'on va etli tolalar xo'jayin-o'simlik ildizi tomon qayriladi va uchi bilan ildiz ichiga kirib, o'z faoliyatini dastlabki so'rg'ich kabi davom ettiradi.

Samarqand viloyati Urgut va Tayloq tumanlarida tamaki va sabzavot-poliz maydonlarida misr shumg'iyasi ekinlarni o'sish va rivojlanish davrida juda ko'p hosil bo'lib, serpoya bo'lib shakllanadi. Bunda ular xo'jayin-o'simlikni yaxshi rivojlangan yon tomirlaridan biriga yoki ildiz bug'zi atrofiga mustahkam o'mashib oladi. Odatda ularni bittasi yo'g'on va semiz juda ko'p so'rg'ichli tunganaklar hosil qiladi. Ularni bir qismi xo'jayin-o'simlikning ingichka ildizlariga yopishib oladi (2-rasm).

Tajribalarimizda Samarqand viloyati Urgut tumani tamaki va pomidor ildizida 100 ga yaqin shoxlar (novdalar) hosil qilganligi aniqlandi. Prof. J.T.Qobulov kuzatishlariga qaraganda. Samarqand va Xorazm viloyatlarida qovun, tarvuz, qovoq va pomidor ildizida misr shumg'iyasini shoxlanish soni 200 dan boshlab 350 tagacha etganligi aniqlangan. Bunday holat ayniqsa unumdar tuproqda shakllangan yirik o'simliklarda ko'p uchraganligi qayd etilgan.

Shoxli shumg'yalarga xos hususiyatlardan-ildiz tunganaklari va so'rg'ich sonlarini sonini ko'p bo'lish hisoblanadi. Ko'pgina tadqiqotchilar shumg'yaning so'rg'ichlarini kimyoviy tarkibida kraxmal ko'p bo'lishligini aniqlanganlar va bu esa poya hosil bo'lishi va parazitni hayot faoliyati davomida oziqa sifatida foydalilanadi.

Ko'pgina hollarda amaliyotda, shumg'iyani er ostida joylashgan poyalarini hosilni kamaytirishdagi ahamiyatiga uncha e'tibor qaratilmaydi.

Prof. J.T.Qobulov, X.M. Mukumov va S.Fayzievalar qovun, tarvuz va pomidor ekinlarida shumg'yaning er ustti va ostidagi sonini aniqlagan (4-jadval).

Tadqiqotchi ma'lumotlariga qaraganda, qovun o'simligida birinchi tajriba maydonida bitta o'simlikda 42 dona shumg'iyadan tuproq yuzasida 17 dona (41 %), tuproqda esa 25 dona (59 %) ekanligi qayd etilgan. Bu ko'rsatkichlar shumg'iya urug'ini tuproq qatlami bo'ylab joylashishiga bog'liq. Shumg'iya urug'lari xo'jayin o'simlik ildiz tizimi rivojlanishi bilan tuproq qatlamida joylashgan urug'lar o'sa boshlaydi.

**Shumg'iya urug'ini tuproq qatlamidagi miqdorini xo'jayin-o'simlik turiga
bog'liqligi**
(*J.T.Qobulov ma'lumoti*)

Xo'jayin o'simlik	1 – maydon			2 - maydon		
	tuproq yuzasida	tuproq qatlamida	jami	tuproq yuzasida	tuproq qatlamida	jami
Qovun	17	25	42	5	22	27
Tarvuz	3	25	28	4	18	22
Pomidor	5	31	36	8	34	42



2-rasm. Xo'jayin - o'simlik ildizida o'sayotgan shumg'iya paraziti

Ko'pgina olimlarning ilmiy tadqiqotlaridashumg'iya bilan zararlangan maydonlardagi er yuzasidagi gullagan parazit o'simtasi yulib tashlanganda ham xo'jayin o'simlik ildizida hosil bo'laveradi. Bunda parazitning paydo bo'lish radiusi xo'jayin-o'simlikdan 20–30sm, ayrim hollarda 50 sm gacha bo'ladi.

Shumg'iya urug'lari tuproqning 30-40 sm chuqurligidan ham unib chiqish qobiliyatiga ega, bunda diametri 3 sm gacha bo'lgan kuchli o'sgan so'rg'ichlar hosil qilishi mumkin. Agar tuproq qatlami juda qattiq bo'lsa, so'rg'ichlar egri-bugri shaklini olishi mumkin. Xo'jayin-o'simliklarga shumg'iya asosiy zararini tuproq ostida o'tkazadi, tuprak yuzasida esa u yashash faoliyatini oxirgi davrini, ya'ni gul hosil qilganidan so'ng, qurib nobud bo'lishi er yuzasida sodir bo'ladi.

Inv № 371236

Professor J.T.Qobulov pomidor va tamaki o'simliklarda shumg'iyanidan toza bo'lgan maydondan (ilgari 15 yil daraxtzor bo'lgan) 60 sm chuqurlikda haydalib, uning turli chuqurliklariga shumg'iya urug'lari uyalib ekilgan (5-jadval). Tajribadan shu narsa aniqlanganki, shumg'iya urug'i tuproq qatlamida qancha chuqurda bo'lsa, uni er yuzasiga unib chiqishi shuncha qiyin bo'lar ekan. Asosan, tuproqning 20 sm qatlamidan parazit urug'lari eng ko'p miqdorda er yuzasida unib chiqar ekan. Tuproqning 50 sm qatlamidagi urug'lar umuman unib chiqmasligi aniqlangan. Tuproqning chuqur qatlamida shumg'iya urug'ini unib chiqish qobiliyati keskin yomonlashadi (3-rasm).

A.V. Zagorovskiy Markaziy Osiyo mamalakatlaridashumg'iya turlarini tarqalishi arealini o'rgangan va bu xududda misr shumg'iyasiva kungaboqar shumg'iysi keng tarqalganligini bayon qiladi.

5 -jadval

Shumg'iya urug'lari turli xil chuqurlikda uyalab ekilganida uning

poyalarini er yuzasida hosil bo'lishi

(J.T. Qobulov ma'lumoti)

Xo'jayin-o'simlik	Shumg'iya urug'ini ekish chuqurligi, sm	15.VI	30.VI	15.VII	30.VIII	15.IX	30.IX
Pomidor	20	4	6	12	15	18	22
	30	-	1	5	5	5	5
	40	-	-	1	2	2	2
	50	-	-	-	-	-	-
Tamaki	20	1	3	7	9	11	14
	30	-	1	2	3	5	7
	40	-	-	-	1	2	2
	50	-	-	-	-	-	-

Misr shumg'iysi zararlaydigan o'simliklardan tashqari, agar agrotexnik qoidalari buzilgan holatlarda (donli ekin maydonlarga ishllov berish kechikkanda, beda yaxshi parvarishlanmasa, qator orasi ishlanadigan ekinlarni bgonga o't bosganda va boshqa agrotexnik qoidalari buzilganida)almashinibekish maydonlaridagi boshqa o'simliklarda oson tarqalish hususiyatiga ega. Ayniqsa, ekin maydonlarida begona o'tlarni yo'qotmasdan shumg'iyaga qarshi samarali kurashib bo'lmaydi. Ushbu talabni to'liq bajarmasdan turib, fitotsenozdan parazitni to'liq chiqarib bo'lmaydi.



3 - rasm. Shumg'iya urug'ini tuproqda tarqalish areali

Shumg'iya urug'i. Shumg'iyaning urug'i juda kichik bo'lib, uzunligi 0,4-0,5 mm, eni va qalinligi 0,025 mm. 1000 ta urug'ining og'irligi 0,075g.

Misr shumg'iyaning urug'i boshqa turlariga qaraganda kattaroq bo'lib, bir gramida 60.000 dona urug' bo'ladi. Misr shumg'iyaning 1000 dona urug'ining og'irligi 0,104 g. Parazit bir dona ko'sakchasida 1500-2000 dona urug' bo'ladi (4-rasm).

A.V.Zagorovskiy ma'lumotlariga ko'ra, 25x25 sm maydonda misr shumg'iyaning 41 dona guli borligi aniqlangan. Unda 600 ming dona urug' borligi va hisoblarga ko'ra 1 kv.m maydonda 9 mln. donadan ziyod parazit urug'i borligi aniqlangan. Uning kichik urug'lari shamol, odamlar va hayvonlar yordamida oson harakat qiladi.

Shumg'iya gullari odatda hasharotlar yordamida changlanadi. I.G.Beylin ma'lumotlariga ko'ra, shumg'iya izolyator ichida ham urug' hosil qilish qobiliyatiga ega.

Parazit poyasining uzunligi va qalinligi gullarning soni va o'Ichami, ko'sakcha va undagi urug' soni uning turiga, xo'jayin o'simlik o'sish sharoitiga, tuproq unumdoorligiga, tuproqning suv va oziqa rejimiga, shu bilan birga parazitning ildizidagi so'rg'ichlar soniga chambarchas bog'liq ekanligini professor J.Г.Qobulov (1978) Samarqand viloyati sharoitida sabzavot poliz va tamaki ekinlarida olib borgan tadqiqotlarda aniqlagan.

Misr shumg'iysi barcha xo'jayii-ekin turlarida, ayniqsa poliz ekinlarida yaxshi o'sib rivojlanib juda ko'pshoxlar hosil qiladi. Kuz oylarida (sentyabr, oktyabr) parazit bitta-ikkita shox hosil qiladi.

Misr shumg'iyasi bilan kuchli zararlangan maydonlarda xo'jayin-o'simlik ildizda rivojlanish davri turli xil bo'lgan.Bitta o'simlikda 25-30 tagacha parazit moyasi, ularni uzunligi 15-55, ayrim hollarda 70 sm gacha bo'lganligini tadqiqotchilar aniqlashgan.



4-rasm. Shumg'iyani urug'i


Ko'pgina fermer xo'jaliklarida parazit begona o't- shumg'iyani urug' hosil qilguncha, uni yulib olib tashlash hollari uchraydi. Bunday hollarda xo'jayin-o'simlik ildizi shikastlanadiva turli kasalliklar infeksiyasi uchun yo'l ochiladi, bundan tashqari parazit ildiz va poya kurtaklari orqali yana o'sib chiqadi.

Prof. J.T.Qobulov shumg'iya poyasini er yuzidan 3-4 sm qoldirib kesganda yon shoxlar paydo bo'la boshlagan, ular 15 kunda gullab, 20 kundan so'ng 10-15 dona urug' ko'sagi hosil qilganligini tajribalarda aniqlagan. Tadqiqotchi shunday xulosaga kelganki, shumg'iya poyasini kesganda ularda juda tez yon poyalar hosil bo'ladi va qulay sharoitda o'sish va rivojlannishini davomi ettiradi. Poyani kesish yangi poyalarni paydo bo'lishini tezlashtiradi va parazitni xo'jayin-o'simlikga zararini kuchaytiradi.

Shumg'iyani rivojlanish davrlarixo'jayin-o'simlik turiga bog'liq ekanligi tadqiqotlarda aniqlangan. Bir qator efemer o'simliklarda parazit juda qisqa 20-22 kun deganda rivojlanishini to'xtatadi. Bu davrda parazit efemer o'simliklardan maydonlarni parazitdan tozalash uchun aldamchi (provakatsion) ekin sifatida foydalanish mumkin.

Poyasi yirik va uzoqqaqt davomida o'suvchi madaniy va yovvoyi ekinlarda (tamaki, pomidor, kungaboqr, bodring, poliz ekinlarida, shuvoq va boshqalar) shumg'iya yaxshiparazitlik qiladi va 200-250 dona yon poyalar hosil qilib, uni rivojlanish davri ham uzayadi.

Shumg'iyani tuproq yuzasida paydo bo'lishidan o'suv davri tugaguncha boding va qovunda 33-35 kun, pomidor va tamaki o'simliklarda 38-40 kun o'tadi. Shu bilan birga turli xil xo'jayin - o'simliklarda shumg'iyani bo'yiga o'sishi ham turlicha bo'lislighi aniqlangan.



5 - rasm. Shumg'iya urug'ining unuvchanligini rulon usulida aniqlash

Misr shumg'iyasida noqulay sharoitga moslashish va o'zgaruvchanlik hususiyatlari kuchli rivojlanganligi sababli ularda keng morfologik o'zgaruvchanlik kuzatiladi.

Parazit begona o't shumg'iyada uzoq vaqt parazitlik hayot faoliyati davomida bir qator biologik hususiyatlar paydo bo'lgan, jumladan ko'p urug' hosil qilishi, urug'ni tuproqda juda ko'p yillar saqlanishi, poyasi jarohatlanganda yon poyalarni juda tez hosil qilishi, qisqa vaqt gullab urug' berishi, xo'jayin -o'simliklarni ko'pligi va boshqalar.

A.V.Zagorovskiyning Qirg'iziston sharoitida o'tkazgan kuzatuvlariga qaraganda, ekinlarni sug'organda ham suv orqali shumg'iya urug'lari tarqalar ekan. Ariq suvi tekshiruvdan o'tkazilganda, 30 metr ariq suvda 1-3 donagacha shumg'iya urug'i borligi aniqlangan. Agar sug'orish me'yori 600 m^3 bo'lganda, gektariga sug'orish orqali 20 mingdan 60 mingtagacha shumg'iya urug'i tuproqni ifoslantirishi aniqlangan.

Shumg'iya urug'i tuproq yuzasiga to'kiladi, uning bir qismi noqulay tashqi sharoit tufayli nobud bo'ladi, uning asosiy qismi er haydash orqali tuproqni turli qismilariga tarqalib ketadi.

Iamaki maydonlarida shumg'iya parazitini o'rgangan prof. S.E.Grushevoyning ta'kidlashicha, parazitning urug'lari sovuq ta'sirda unuvchanligini yo'qotadi.

Haqiqatan ham shumg‘iya urug‘lari sovuq ta’sirida nobud bo‘lishini boshqa olimlar ham aniqlashgan.

Ko‘pgina olimlarning fikricha, shumg‘iya urug‘i bir qator o‘simliklar ta’sirida ham nobud bo‘lishi mumkin. Shumg‘iya parazitlik qila olmaydigan o‘simliklar ildizidan chiqayotgan ildiz chiqitlari parazit urug‘i uchun noqulay sharoit tug‘diradi va urug‘ning nobud bo‘lishiga olib keladi.

Odatda kuzgi shudgor vaqtida tuproq yuzasidagi juda kichik shumg‘iya urug‘lari butun tuproqni haydalma qatlami bo‘yicha tarqalib ketadi. Ular tuproqning haydalma qatlamining turli chuqurliklarida o‘z unuvchanligini saqlaydi. Bu fikr kuzgi shudgor shumg‘iyaga qarshi kurashda samarali vosita ekanligiga shubha tug‘diradi va ko‘pgina olimlarning bu boradagi fikrlarini to‘liq tasdiqlaydi.


Parazit begona o‘t shumg‘iyaning urug‘ini unib chiqishi to‘g‘risida juda ko‘p olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Lekin xozirgacha uning unib chiqish mexanizmi haqida aniq fikrlar aytilmagan. Ushbu masalani ilmiy jihatdan asoslash shumg‘iyaga qarshi samarali kurash usulini yaratishga asos bo‘lishi mumkin. Shumg‘iya urug‘i unuvchanligini rulon usulda aniqlash Butunrossiya moyli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan tavsiya etilgan. Hozirgi vaqtida barcha ilmiy laboratoriyalarda ushbu usul keng joriy qilingan (5-rasm).

Bir qator tadqiqotchilar shumg‘iya urug‘ini unib chiqishi tuproq eritmasining pH ko‘rsatkichiga bog‘liq ekinligini ko‘rsatib o‘tgan. Rixterning ko‘rsatishicha, shumg‘iya urug‘i ishqorli tuproqlarda unib chiqmasligi aytilgan.

Tuproq muhitining (rN) shumg‘iya uchun qulay ko‘rsatkichi 6,7 bo‘lib, 8,5 ko‘rsatkichda urug‘ unib chiqmaydi. Prof. S.E. Grushevoy ta‘kidlashicha, shumg‘iya urug‘i tuproq eritmasining reaksiyasi taxir va neytralga yaqin bo‘lganda unib chiqadi. Boshqa bir qator olimlar tuproq eritmasini reaksiyasi urug‘ uchun ikkinchi darajali ko‘rsatkich ekanligini bayon qilganlar. Barsinskiy tadqiqotlarida shumg‘iya urug‘ini unib chiqishi uchun ildiz tizimidagi stimulyator asosiy omil bo‘lib xizmat qilishini aniqlagan (6-rasm).

Shumg‘iya (Orobanche) turkumi yuksak o‘simliklarga mansub bo‘lib, qishloq xo‘jalik ekinlarining obligat parazitlari hisoblanadi. Shumg‘iya o‘simliklarning ildizlariga yopishib olib, o‘zi uchun kerak bo‘lgan suv va oziga moddani xo‘jayin organizmidan oladi hamda ekinlarni nobud bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. U hosil qiladigan urug‘lar juda mayda bo‘lib, infeksiya manbai sifatida shumg‘iya turiga qarab 10 yildan 20 yilgacha tuproqda saqlanib qoladi. Tuproqning haydaladigan qatlamiga tushgan urug‘ xo‘jayin - o‘simlik ekilmaguncha tinim holatida qoladi. Bu esa shumg‘iyani daladan yo‘qotishni ancha qiyinlashtiradi. Shu sababli shumg‘iyaga qarshi kurash choralaridan eng samaralisi uning infeksiya manbaini tuproqdan yo‘qotishdir. Bunday chorallardan biri xo‘jayin bo‘lmagan o‘simliklardan tuproqdag‘i shumg‘iya urug‘ini undirishda foydalanish hisoblanadi. Bu g‘oya o‘tgan asrning

o'rtalarida I.G.Beylin (1940) tomonidan ilgari surilgan bo'lib, uning fikri bir qator tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan (Teryoxin, 1988; Antonova va boshq., 2009).



6-rasm. Shumg'iya urug'ini kungaboqar ekini ildiziga kirishi va makkajo 'xori ildiziga munosabati.

Prof. I.G.Beylin (1968) shumg'iya bo'yicha o'tkazgan nazariy va amaliy tadqiqotlarida uning urug'i parazit uchun xo'jayin-o'simlik bo'limgan (makkajo 'xori, zig'ir, soya) o'simliklar ildizini zararlashi mumkin ekanligini bayon qilgan.

S.E.Grushevoy (1950) tadqiqotlarida shumg'iya urug'ini unib chiqishi uchun xo'jayin-o'simlik ildizi bilan bog'lanishdan tashqari shumg'iya turlari bo'yicha turlicha harorat ham zarurligini qayd etgan. Shumg'iya parazitini urug'i+20° S dan past haroratda unib chiqmasligi aniqlangan. Eng qo'lay harorat+25° S bo'lib, +30° S dan yuqori haroratda misr shumg'iysi urug'i juda sust unib chiqadi yoki umuman unib chiqmaydi. A.V.Zagorovskiy (1956) Qirg'iziston tuproq-iqlim sharoitida misr shumg'iysi urug'i tuproq harorati+25° S bo'lganda, urug' 11 kundan so'ng unib chiqgan, +20° S tuproq haroratida esa 20 kundan so'ng unib chiqganligini qayd etgan. Misr shumg'iysini ushbu biologik hususiyatidan kelib chiqgan holda, parazitni zararini ekinlarni ekish muddatlarini boshqarib kamaytirish imkoniyati mumkin ekanligi aniq bo'ladi.

Shumg'iyaning fizioligik hususiyatlari.

Shumg'iya (Orobanche) turkumi yuksak o'simliklarga mansub bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarining obligat parazitlari hisoblanadi. Shumg'iya o'simliklarning

ildizlariiga yopishib olib, o'zi uchun kerak bo'lgan suv va oziqa moddalarni xo'jayin organizmidan so'rib oladi hamda ekinlarni nobud bo'lishiga sababchi bo'ladı.

Respublikamizda parazit o'simlik shumg'iya (ilono'ti) sabzavot, poliz ekinlari, kungaboqar va tamakiga katta zarar etkazadi. Ushbu parazit begona o'ti qovun, tarvuz, pomidor, kartoshka, tamaki, kungaboqar, eryong'oq, kunjut va boshqa ekinlarning ashaddiy parazitbegona o'ti hisoblanadi.



7- rasm. Kungaboqar poyasidagi shumg'iya poyalari

O'zbekiston sharoitida shumg'iyaning misr shumg'iysi, shershox shumg'iya va karam shumg'iysi tarqalgan. Ulardan misr shumg'iysi (*Orobanche aegyptiaca* Pers.) keng tarqalgan bo'lib, turli oиласидаги 100 turdan ortiq o'simliklarni zararlaydi. Shumg'iyaning zarari poliz, sabzavot va texnik ekinlarida turlicha bo'lishi mumkin. Sabzavot ekinlarinimisr shumg'iysi o'rtacha 50-60 % zararlab, hosilning 20-25 %va undan ziyod miqdori nobud bo'lishi aniqlangan.

Shumg'iyaning biologiyasi haqida juda ko'p ilmiy va amaliy adabiyotlarda ma'lumotlar keltirilgan. Lekin, unga qarshi kurash haqidagi ma'lumotlar juda kam (D.T.Kabulov, 1969; I.G.Beylin, 1967; S.I.Perevalov, 2001).

Bundan tashqari, shumg'iya paraziti ma'lum bir o'simlikning hosili va sifatiga keltiradigan zarari haqidagi ma'lumotlar ham juda kam. Ayniqsa, keyingi yillarda shumg'iya paraziti qishloq xo'jalik ekinlarida jiddiy zarar keltirmoqda. Unga qarshi kurash usullari juda o'r ganilgan va ishlab chiqarishga joriy etilmagan.

Shumg'iya ming yillab davom etgan evolyusiya natijasida parazit hayot tarziga moslashib, bir qator biologik hususiyatlarga, ya'ni tashqi muhitga yuqori moslashish darajasi, katta ko'payish koeffitsientiga (1 o'simlik 150-200 ming dona urug' hosil qiladi), uning urug'lari tuproqda uzoq vaqt saqlanishi (10-12 yil), qulay sharoit paydo

bo'lganda xo'jayin o'simlik ildiz tizimiga o'rashib unib chiqishi kabi bir qator biologik hususiyatlarni shakllantirgan.

Ko'p yillik o'simliklarda parazitlik bilan yashab kelayotgan shumg'iya turlari ko'p yillik parazit sifatida hayot kechiradi. Uning ayrim turlari vegetativ ko'payish hususiyatiga ega.

Shumg'iyaning bir yillik o'simliklarda parazitlik qiluvchi turlari xo'jayin o'simlik bilan birga yashaydi yoki ko'p yillik o'simliklarga ko'chib o'tish hollari ham uchraydi. Ular xo'jayin - o'simlik nobo'd bo'lgandan keyin 8-14 kungacha yashashi mumkinligi aniqlangan. Ayrim joylarda parazitning ikki yillik turlari ham uchraydi. Birinchi yili xo'jayin – o'simlik ildiz tizimida tuganakka o'xhash etli to'qima hosil qiladi va ikkinchi yili undan poya unib chiqadi.

Misr shumg'iysi asosan bir yillik o'simliklarda parazitlik qiladi va odatda, xo'jayin-o'simlik bilan birga vegetatsiyasini tugatadi. Ayrim holatlarda parazit efemer begona o'larda ham yashashi mumkin (A.Sh.Xamraev, K.Nasriddinov, 2003). Parazitning bu hususiyatlaridan unga qarshi kurashda foydalanish mumkin.


Parazit-o'simlik shumg'iada moslashuvchanlik va polimorfizm hamda morfologik o'zgaruvchanlik kuchli rivojlangan.

Professor D.T. Qobulov (1969) tomonidan qovun, tarvuz, oshqovoq, bodring, pomidor, tamaki va kungaboqar ekinlarida misr shumg'iysining morfologik belgilari turli xil ko'rinishda bo'lishligiva bu belgililar nasldan-naslga o'tmasligi aniqlangan.

Tamaki va kungaboqar o'simliklarida shumg'iya juda ko'p shox hosil qiladi, ayniqsa o'simlik jadal o'sish davrida buni yaqqol kuzatish mumkin (7-rasm). Bunda parazit tamakining yaxshi rivojlangan yon ildiz yoki ildiz bo'g'ziga yaqin bo'lgan qismiga so'rg'ichlari bilan yopishib oladi. Parazitning so'ruvchi qismida juda ko'p miqdordagi kraxmal moddasi bo'lishligi uni o'sishini jadal bo'lishini ta'minlaydi.

Misr shumg'iysi paraziti tuproqda xo'jayin-o'simlik ildiz tizimigajoylashgandan keyin er yuzasiga chiqib poya hosil qilganlari qovunda 40,5 %, tarvuzda 10,7 % va pomidorda esa 13,9 % ni tashkil qiladi. Qolgan parazitlar tuproqni chuqurroq qismida joylashadi va ular xo'jayin-o'simlikni butun o'suv davri mobaynidha unib chiqqa boshlaydi, shu bilan o'simlikka butun o'suv davri davomida ziyon etkazadi. Parazit uch marta yulib tashlaganda ham yana unib chiqish qobiliyatiga ega.

Tamaki o'simligi atrofidan 30-40 sm radiusda va ayrim holatlarda undan uzoqroq joylarda ham parazit unib chiqadi. Shumg'iya urug'lari tuproqning 30-40 sm chuqurligida ham unib chiqib, so'ruvchilarining diametri 3 sm gacha boradi (8-rasm). D.T.Qobulov (1978) tajribalarida tuproqning 20 sm chuqurligidan eng ko'p parazit unib chiqishi aniqlangan.



8- rasm. Shumg‘iya urug‘ini tuproq qatlamida joylashuvi

Misr shumg‘iyasi xo‘jayin-o‘simliklarda yashirin holatda tuproq tagidagi ildiz qismida yer yuziga chiqmasdan parazitlik qiladi. Uning xo‘jayin-o‘simlikka asosiyzarari tuproqning parazit joylashgan qismida sodir bo‘ladi, er ustiga uni unib chiqishi oxirgi bosqich bo‘lib, gullagandan keyin u quriy boshlaydi.

A.V.Zagorovskiy (1956) ma‘lumotlariga ko‘ra, tamaki maydonining 1 m^2 maydonida 9 mln. donashumg‘iya urug‘i hosil bo‘lishi aniqlangan. Parazitning urug‘i juda kichik bo‘lganligi sababli shamol, odam, hayvonlar, shu bilan birga sug‘orish suvi orqali tarqalishi mumkin.

Shumg‘yaning gullari hasharotlar orqali, asosan fitomiza pashshasi orqali changlanadi. Lekin, ayrim ma‘lumotlariga ko‘ra, shumg‘yaning urug‘iizolyatorda ham hosil bo‘lgan.

Shumg‘iya poyasining bo‘yi va eni, gulining soni va kattaligi, ko‘sakcha soni va undagi urug‘ soni parazitning turiga, xo‘jayin-o‘simlik o‘sayotgan tabiiy va agrotexnik sharoitlarga hamda xo‘jayin-o‘simlik ildizida o‘sayotgan parazitlarning soniga bog‘liq.

Odatda, tamakida misr shumg‘iyasi kuchli shoxlangan bir nechta poyaga ega bo‘lib, sentyabr-oktyabr oylariga kelibbitta poya hosil qiladi. Ushbu poyaga fitomiza pashshasi tuxum qo‘yadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar shumg‘iya urug‘i bilan oziqlanadi va shu yo‘l bilan uni avlod qoldirishini keskin kamaytiradi. Ushbu yo‘l bilan uning urug‘ mahsulдорligi 60-65 % kamayadi.

Tamaki misr shumg‘iyasi bilan kuchli zararlanganda har bir o‘simlik ildizida 15-20 tadan turli rivojlanish davrlaridagi parazit bo‘lib, ularni bo‘yi 10 sm dan 40 sm gacha bo‘lishi aniqlangan (Fayzieva, 1975).

Tamaki maydonlaridagi shumg‘iya odatda turli rivojlanish davrlarida terib tashlanganda, tamakining ildizi jarohatlanadi, parazitning ildizga yopishib turgan qismi qoladi va qulay sharoitda qisqa davr mobaynida undan yangi poya o‘sib chiqadi va 15-20 kundagullab ko‘sakcha (urug‘) hosil qiladi.

Misr shumg'iyasning rivojlanish davrlarining davomiyligi odatdaxo'jayin – o'simlikning o'suv davrini davomiyligiga bog'liq. Ayrim efemer o'simliklarda shumg'ianing rivojlanish davri 20 kungacha bo'lsa , tamakida esa 40-45 kungacha rivojlanib, poyasida juda ko'plab shoxlar hosil qilishi bilan tavsiflanadi. Tamaki o'simligida parazit o'simtasi paydo bo'lganidan keyin 12-14 kundan so'ng gullay boshlaydi va qiyg'os gullah davri 16-18 kundan so'ng kuzatiladi. Gullah davri tugashi bilan ko'sakchalar hosil qilish davri bir haftagacha davom etadi. Shumg'iya parazitining kimyoviy tarkibida bir qator zaharli moddalar – glyukozid va alkoloidlar (rinantin, arobanxolin) bo'lganligi sababli chorva mollari uni yemaydi.

Shumg'iya urug'lari xo'jayin o'simlik ildizi bilan to'qnashganda avval tuproqning yuza qatlamidagi, keyin esa pastki qatlamlardagi urug'lar unib chiqadi, shuning uchun ham shumg'iya o'simtalarining tuproq yuzasida paydo bo'lishi butun xo'jayin - o'simlikni o'suv davri davomida sodir bo'lib turadi (8-rasm). Bu borada M.S.Sivsevning (1960) ishlari diqqatga sazovordir. Uning ta'kidlashicha, shumg'iya bilan zararlangan dalalarda u yulib olingandan keyin 7-10 kun o'tgach yangi o'simtalar paydo bo'ladi, ular shumg'ianing xo'jayin -o'simlik ildizida qolgan qismlaridan hosil bo'ladi. Yangi o'simliklar hatto uch marta yulib olingandan so'ng ham paydo bo'lishi mumkin. Bunda parazitning pomidor ildizi atrofida paydo bo'lish radiusi 30-40, ba'zida 70 sm ni tashkil qiladi.

Misr shumg'iyasi o'simliklarda, shu jumladan pomidorda yashirin holatda ham rivojlanishi mumkin. M.V. Sivsov pomidorning ba'zi bir tuplarida 30-40 donagacha yashirin holatdagi shumg'iya novdalarini topgan. Shumg'iya o'simlikka asosan er ostidaligi vaqtida zarar ctkazadi, er yuzasiga chiqib gullah davriga o'tishi uning eng so'nggi rivojlanish bosqichi bo'lib hisoblanadi, chunki gullagandan so'ng ular quriy boshlaydi (9-rasm).



9- rasm. Xo'jayin-o'simlik ildizidagi shumg'iya tiganaklari

6 - jadval.

**Shumg‘iya ta’sirida tamaki o’simligi bargi va ildizida nuklein kislotalar
miqdorini o’zgarishi**
(T.P. Mixaylova , V.E.Bienko , 1980)

Tadqiqot ob’ekti	Tahlil olish muddati	mg/g quruq modda			RNKnning DNKga munosabati
		DNK	RNK	RNK+D NK	
Tamaki-bargi (zararlanmagan)	1	0.75	2.76	3.51	3.68
	2	0.70	2.35	3.05	3.33
	3	0.64	3.04	2.57	3.01
Tamaki – bargi (zararlangan)	1	0.90	2.76	3.94	3.42
	2	0.61	2.21	3.37	4.52
	3	0.43	4.97	2.64	5.13
Tamaki – ildizi (zararlanmagan)	1	1.59	4.14	6.56	3.12
	2	1.52	3.31	4.83	2.17
	3	1.26	1.93	3.19	1.53
Tamaki –ildizi (zararlangan)	1	1.33	4.97	6.30	3.73
	2	0.99	4.14	5.04	4.60
	3	0.93	3.04	3.97	3.96
Shumg‘iya	1	0.54	5.54	6.07	10.24
	2	0.26	3.87	4.13	14.88
	3	0.13	3.31	3.44	25.14

Izoh: 1 - shumg‘iyani er ostidagi rivojlanish davri; 2- shumg‘iyani gullash davri; 3- shumg‘iya urug‘ini pishish davri.

Poliz ekinlarining turli navlarida transpiratsiya jadalligini shumg‘iya bilan zararlanishga bog‘liq holda o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, poliz ekinlarining o‘rganilayotgan deyarli barcha turlarida shumg‘iya bilan zararlanmagan o’simliklarda $1m^2$ barg yuzasida 1 soatda bo‘ladigan transpiratsiya jadalligi zararlangan o’simliklarga nisbatan bir necha marta kamaygan (Kabulov D.T., Mukumov X.M., Fayzieva S.Z., 1981).

Muhitning biokimyoiy rolini aniqlash, o’simlikka ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik omil sifatida qisman Pinevich L.M. (1934), Kling E.G. (1934), Demidenko T.T. (1940), Kiseleva V.V. (1940), Beylin I.T. (1940), Keller B.A. (1956), Titova I.A. (1952), Grodzinskiy A.M. (1965, 1966), Saidze G.A., Ovcharova K.E. (1966) va boshqalarning ilmiy ishlarida bayon qilingan.

Butunrossiya tamaki va maxorka ekinlari ilmiy –tadqiqot instituti professori I.P.Mixaylova va V.E.Bienko (1980) shumg‘iyani nuklein kislotalar va oqsil fraksiyasiga ta’sirini o‘rganishgan (6 -jadval).

Tamaki shumg‘iya bilan zararlanishi uning tarkibidagi nuklein kislotalar va oqsil fraksiyasini kamayishiga olib kelgan. Shumg‘iya tarkibida tamakiga qaraganda DNK mikdori kam , lekin RNK mikdori ko‘p ekinligi qayt etilgan. Shumg‘iya to‘qimalarida tamaki tarkibida uchramaydigan qo‘sishmcha oqsil komponenti borligi tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan.

Parazit o‘simlik uchun muhitning asosiy elementi, u bilan yaqin aloqada bo‘lgan xo‘jayin - o‘simlikning biologik va biokimoviy xossalari bo‘lib hisoblanadi. I‘iziologik-biokimoviy jarayonlarning o‘zgarishi shumg‘yaning turli xil oilalarga mansub bo‘lgan madaniy va yovvoyi o‘simliklarda parazitlik qiluvchi turlarida ayniqsa yaxshi szsiladi. Markaziy Osiyo sharoitida Misr shumg‘iyasi 90 dan ortiq tur o‘simliklarda parazitlik qiladi.

Shumg‘yaning biologik hususiyatlaridan unga qarshi kurashda foydalanish.

Parazit turi *Orobanche cumana* Wallr.- kungaboqar shumg‘iyasi Orobanche oilasiga mansub bo‘lib, uning poyasi 65 sm gacha bo‘ladi, poyasi shakli o‘zgargan barg qobiqlari bilan qoplangan, xlorofill bo‘lmaydi, qizg‘ish-siyohrang tusda bo‘ladi.

Shumg‘iya gulik labli osmon rang o‘ch ko‘k bo‘lib, boshqsimon gul to‘plamga birikkan, gullagandan keyin meva- 10-40 donagacha ko‘sakcha hosil qiladi, ikki chanoq bo‘lib ochiladi, har bir ko‘sakchada juda kichik 0,2-0,3 mm o‘lchami 50 ming donagacha urug‘ hosil bo‘ladi.

Shumg‘iya – chetdan changlanuvchi fakultativ gulli o‘simlik bo‘lib, 100 mingdan 500 ming tagacha urug‘ hosil qiladi, ular tuproqda 10 yildan 20 yilgacha unuvchanligini saqlaydi, ular xo‘jayin o‘simlik ildiz tizimidan kislotali ajratma his qilishi bilan unga yopishib unishni boshlaydi. Uning urug‘I va keyingi o‘sishi uchun qulay harorat 15-25 °C hisoblanadi. Harorat 10 °C dan past bo‘lganda yoki 25 °C dan yuqori bo‘lganda urug‘I unib chiqmaydi.

Akademik Pustovoyt nomidagi Butunrossiya moyli ekinlar ITI (Krasnodar sh.) olimlari professor T.S. Antonovava E.A. Strelnikovlar (2013) tomonidan kungaboqar duragaylari ildiz chiqitlari ishtirokida turli harorat rejimida shumg‘iyani yuqori virulentli populyasiyalarini urug‘ini unish tezligi o‘rganilgan. O‘rganilgan parazit populyasiyalarini urug‘ini unib chiqishi uchun qulay harorat 25 °C dan kam bo‘lmasligi aniqlangan. Tajribalarda harorat 30 °C da parazit urug‘lari unib chiqmagani.

7 -jadval

Furli harorat rejimida shumg‘iya (*O.sumana*) urug‘ini unib chiqishi
 (E.A.Strelnikov, T.S. Antonov ma ‘lumoti, 2013)

Populyasiya nomeri, urug‘ yig‘ish yili	Harorat, °C	Shumg‘iya urug‘ini unib chiqishi, sutkada %				
		3	5	7	10	17
1,2003	13	0	0	0	0	5,7±3,6
	20	0	30,1±3,0	45,0±3,1	56,7±1,4	61,0± 1,2
	25	0	41,3± 3,6	56,4± 3,3	61,2± 2,2	61,2± 2,7
	30	0	0	0	0	0
	35	0	0	0	0	0
2,2011	13	0	0	0	0	2,0±0,1
	20	0	32,0 ±2,2	72,3± 1,8	76,4± 1,6	81,0± 1,0
	25	0	49,5± 2,9	77,6± 2,1	81,2± 1,5	81,2± 1,8
	30	0	0	0	0	0
	35	0	0	0	0	0
3,2012	13	0	0	0	0	10,0± 2,6
	20	0	10,3± 3,5	41,2± 2,8	44,5± 1,2	57,1± 1,0
	25	0	40,4 ±3,1	55,0 ±2,7	58,6± 2,3	58,7± 1,9
	30	0	0	0	0	0
	35	0	0	0	0	0

Xo‘jayin –o‘simplik ildiz tizim ajratgan ajratma ta’sirida urug‘ bir necha mm o‘sa boshlaydi va kungaboqar ildiz bilan aloqani boshlaydi va gaustoriyalar hosil qilib, rizodermisga kiradi, keyin ildizni qattiq qismiga (yog‘ochlangan) o‘rnashib olib, xo‘jayin – o‘simplikning tomir tizimi bilan parazit o‘rtasidagi aloqani o‘rnatadi. Ilmiy tadqiqotlarda zig‘ir, soya, makkajo‘xori, o‘simpliklari kungaboqar shumg‘iyasi bilan zararlanmasligi aniqlangan, ularda juda kam miqdorda parazit urug‘i unishi mumkin.

8 -jadval

**Shumg‘iya urug‘ining unishiga qishloq xo‘jalik ekinlariningildizi ajratadigan
moddalarining ta’siri**

(B.Nosirov, O.Zuparov, M.Ablazova ma'lumoti)

№	Ekin turi	Unib chiqqan shumg‘iya urug‘i, %					
		Shumg‘iya namunasi olingan joy					
		Toshkent viloyati		Sirdaryo viloyati	Jizzax viloyati		
		Qibray tumani	Parkent tumani	Bo‘stonliq tumani	Guliston tumani	Zomin tumani	Jizzax tumani
1.	Makkajo‘xori	0	0	0	0	0	0
2.	Bug‘doy	0	0	0	0	0	0
3.	Pomidor	46	12	8	21	7	35
4.	Bodring	9	4	1	8	2	7
5.	Loviya	8	2	2	10	3	6
6.	Kungaboqar (nazarat)	100	94	90	100	88	97

Toshkent davlat agrar universiteti olimlari qishloqxo‘jalik fanlari doktori B.S.Nosirov, O.O.Zuparov, M.M.Ablazovalar (2016) tajribalarida foydalilanilgan qishloq xo‘jalik ekinlarining ildizi ajratgan moddalar shumg‘iya urug‘ini unishiga turlicha ta’sir qilganligi aniqlangan (1.8 -jadval). Bug‘doy va makkajo‘xori o‘simliklarining ildizi ajratgan moddalar ta’sirida shumg‘iya urug‘i umuman unib chiqmagan.

Shumg‘iya urug‘ining unishi bodring o‘simligi ta’sirida 1-9 %, loviyada 2-10 % va eng ko‘pi pomidorda bo‘lib, urug‘ning unishi 7-46 % gacha bo‘lgan. Nazoratda, ya’ni kungaboqar o‘simligining ta’siri tufayli esa 88-100 % gacha shumg‘iya urug‘lari unib chiqishi kuzatilgan. Demak, shumg‘iya urug‘ining infeksiyasidan ekin dalalarining tuproqlarini tozalashda makkajo‘xoridan foydalinish amaliy jihatdan samarali bo‘lishi mumkinligi olimlar tomonidan tavsiya etilgan..

Xo‘jayin –o‘simlikni ildiz tizimi bilanparazit o‘ziga xos nasos hosilqiladiva uning yordamida suv hamda oziq moddalarini so‘rib oladi.

Rossiyalik olimlar Panchenkova Antonov (1974) tadqiqotlarida kungaboqarni shumg‘iyaga chidamli genotiplarida ildizga gaustoriyalar kirishida kambiyni bo‘linishi tezlashadi valignin qavati hosil bo‘lishi parazitni o‘simlikga kirishiga to‘sqinlik qiladi.

Kungaboqar ildizida rivojlanayotgan shumg‘iya o‘simligini soni duragayni sezuvchanligi, inokulum soni va tuproq namligiga bog‘liq. Shumg‘iyani zarari quruq tuproqda juda xavfli tus oladi, chunki kungaboqar qurg‘oqchilik davriga bardosh bera olmaydi. Kungaboqar unumdar va namligi yetarli bo‘lgan tuproqlarda yaxshi o‘sadi, yirik o‘simlik bo‘lib shakllanadi va bu o‘simlikda shumg‘iyani parazitlik qilishi oson kechadi.

Shumg‘iya urug‘I tuproqda qishlaydi va tuproq parazitni asosiy manbai hisoblanadi. Agar parazit urug‘iga xo‘jayin-o‘simlik ildiz tizimidan sharoit (stimul) bo‘lmasa, tuproqda 8-12 yilgacha unuvchanligini saqlay oladi.

Butunrossiya moyli ekinlar ilmiy- tadqiqot instituti tadqiqotchisi V.I.Xatnyanskiy (1984) ma‘lumotlariga ko‘ra, kungaboqarni shumg‘iyaga chidamli navlari infeksiyani boshlanish davrida yo‘qotish hususiyatiga ega bo‘lib, tuproqni fitosanitar holatini yaxshilaydi. Qurg‘ochilikga chidamli kungaboqar duragayi gektariga tup soni 40 ming dona ekilganida, hisoblarga qaraganda, shumg‘iyani 25,6 million urug‘ini yo‘qotish hususiyatiga ega. Kungaboqar yetishtiruvchi mamlakatlarda shumg‘iya muammosi dolzarb hisoblanadi. Parazit va xo‘jayin-o‘simlik evolyusiya jarayonida yangi rasalarini paydo qilib turadi va bu o‘simlikni chidamli nav va duragaylarini immunitet tizimi faoliyatini susaytiradi.

Ispaniya mamlakatida shumg‘iya kungaboqar maydonlarida almashlab ekish bo‘liganligi sababli 1995- 1996 yillarda parazitining yangi virulent biotiplerini paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Bu biotipler S, D, E, F rasalari bilan nomlandi. Hozirgi vaqtida F rasasi hamma joyga tarqalib ketgan. Bu hududda kungaboqarning A, B, C, D, E, F rasalariga chidamli nav va gibriddalarini zararlaydigan parazitning virulent rasasi Gtopilgan. Kungaboqar nav va duragaylarini yangilanishi bilan parazitni ham mutanosib ravishda yangi rasalarini paydo bo‘ladi.

Shumg‘iya kungaboqar ekadigan barcha mamlakatlarda tarqalgan. Rossiya mamlakatida shumg‘iyani Arasasi XIX asrda aniqlangan. 1925-yil- Brasasini paydo bo‘lishi; 1960- yil- S rasasini paydo bo‘lishi; 1990- yil-D va E rasasi; 1995- yil- F rasasi; 2004-yil tajovuzkor yangi rasasi (Turkiya, Ispaniya, Ruminiya) tarqalgan.

Shumg‘iyaga qarshi dominant chidamlilik genini paydo bo‘lishi bilan parazitni yangi virulent rasasi kelib chiqadi. Kungaboqar bo‘yicha seleksioner olimlar shumg‘iyaga qarshi yangi chidamlilik manbasi topishi bilanoq parazit yangi virulent rasasini rivojlantiradi.

Amaliyotda shumg‘iyaga qarshi kurashishda bir necha usullar qo‘llaniladi. Shumg‘iyaga qarshi kurashda dastlab ekinlar almashlab ekishga rioya qilish lozim.

Shumg‘iyaga global qarshi kurash ikki qismdan-genetik va kimyoviy nazoratdan iborat. Dunyoda kungaboqarning shumg‘iyaga chidamli Atilla, Bond, Auris, Armagedon, Tristan, NK Alego, NK Neoma duragaylari yaratilgan.

Shumg‘iyaga qarshi uning urug‘ini undiruvchi stimulyatorlar kimyoviy nazoratning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Ma’lumki, shumg‘iya urug‘ini unib chiqishi kungaboqarni ildizidan chiqqan moddalar ta’sirida bo‘ladi. Ushbu moddalarni sun’iy analoglarini ishlab chiqish va ularni tuproqga solish shumg‘iya urug‘ini unib chiqaradi va xo‘jayin- o‘simlik bo‘lmasligi sababli ular nobud bo‘ladi.

Shumg‘iyaga qarshi kimyoviy usulda kurashishda “Alfaximgrup” kompaniyasining Devays ultra gerbitsidi yaxshi samarali vosita bo‘lib, u shumg‘iyaning hamma rasalarini va begona o‘tlarini yo‘qotadi, uni kungaboqarni gibriddalarini 4-8 barg davrida qo‘llash tavsija etilgan (<https://sai.2007.com.ua/a/97234-zaraziha-metody-borby.html>).

Pustovoyt nomli Butunrossiya moyli ekinlar ITI olimlari shumg‘iya bilan kuchli zararlangan maydonlarga makkajo‘xori ekishni tavsija qiladi. Makkajo‘xori shumg‘iya urug‘ini unishini ta’minlaydi, lekin uni rivojlanishi va urug‘ hosil bo‘lishiga imkon bermaydi. Ushbu usulni Ispaniyada dastlab qo‘llash tuproqdagi shumg‘iya urug‘ini 50 % gaeha kamaytiradi. Shumg‘iya urug‘iga bunday ta’sirni zig‘ir, raps va surepitsa ekinlarida ham ko‘rish mumkin.

Ko‘pgina hashaki ekinlar (beda, sebarga) shumg‘iya urug‘ini unib chiqishi uchun stimulyasiya qiladi, shumg‘iyanı urug‘I hosil bo‘lguncha ular yig‘ishtirib olinadi va maydon parazit urug‘idan tozalanadi.

Shumg‘iyani moslashuvchanlik (adaptatsiya) hususiyatlari. Qishloq xo‘jaligini jadal rivojlanish shumg‘iyani yangi virulent rasalarini tez tarqalishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga shumg‘iyaning fiziologik va morfologik tavsifini o‘zgaruvehanligi to‘g‘risidagi zamonaviy bilim va tushunchalar yetishmasligi ma‘lum bo‘lmoqda.

Pustovoyt nomli Butunrossiya moyli ekinlar ITI olimlari professor I.Antonova, N. Araslonova, S.Ramazonova va E. Strelnikovlar (2012) kungaboqar maydonlarda shumg‘iyanı virulent biotiqlarini yig‘ib shumg‘iya o‘simligini kolleksiyasini yaratdilar, parazit tiplari o‘zining mortologik belgilari bilan bir-biridan farq qilishini qayd etdilar.

Shumg‘iya parazit sifatida tashqi muhit va xo‘jayin-o‘simlikga moslashuvchan o‘simlik hisoblanadi. Kungaboqar shumg‘iyasini poyasini rivojlanishi ikki tipda amalga oshadi:

1. Endogen- tuproqda meristema to‘qimalarini joylashtirib;
2. Ekzogen- kurtakni epikotilyar zonasini endospermada gaustorial vazifani bajaradi, u nobud bo‘lmaydi, poyaning apeksida rivojlanadi va undan bitta poya hosil bo‘ladi.

Shumg'iya poyasining apeksini ekzogen shakllanishi parazitni o'simliklarga adaptatsiyasi bilan bog'liq. Bu esa urug'li novdalarni rivojlantirish davrini qisqartiradi.

Tajribalarda shumg'iya popuyasiyalarida turli yo'llar bilan shakllangan novdalarni bir vaqtda rivojlanishi yo'qotiladi. Bu esa bitta novdada dominant bo'lib o'sib ketishiga yo'l qo'ymaydi va tuganakda juda ko'p meristima to'qimalarini hosil qilishiga imkon yaratadi. Bu esa o'z navbatida parazitni urug' mahsulordligini keskin oshiradi. Parazit tuganagini hayot faoliyatini davom ettirishi va bunda yangi apekslarni shakllanishi yana yangi urug' hosil qilishga imkon yaratadi.

Bunday holat parazitni butun o'suv davrida takrorlanadi.

Shumg'iya gullarini poya bo'ylab joylashuvida polimorfizm kuzatiladi, hattoki tuproq ostidagi poyada ham gullar hosil bo'lishi kuzatiladi. Parazitni tuproq tagida ham gullab urug' hosil qilish hususiyati aniqlangan. Ushbu holat parazitda o'z-o'zidan changlanish hususiyati juda rivojlanganligidan dalolat beradi.

Keltirilgan ma'lumotlar shumg'iyani juda keng adaptatsion o'zgaruvchanlikga ega ekanligidan va o'zgaruvchanligini oshirish hususiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Nazorat savollari.

1. Madaniy ekinlarga ko'p zarar keltiradigan shumg'iya turlarini ayting.
2. Shumg'yaning evolyusiya jarayonida hosil bo'lgan biologik hususiyatlari.
3. Shumg'yaning morfologik belgilarini shakllanishida xo'jayin-o'simlikni ahamiyati.
4. Shumg'iya urug'inining biologik hususiyatlari.
5. Shumg'iya urug'inining tarqalish usullari.
6. Shumg'iya xo'jayin-o simlik bilan o'zaro munosabatini baholang.
7. Shumg'yaning fiziologik hususiyatlarini ayting.
8. Shumg'iyaga qarshi kurashda uning biologik hususiyatlaridan faydalanish.
9. Shumg'iyani moslashuv hususiyatlarini baholang.

Shumg'yaning o'sishi va rivojlanishi

Shumg'iya qishloq xo'jalik ekinlarining, ayniqsa sabzavot, poliz va tamaki ekinlarining xavfli paraziti bo'lib, uning ta'sirida bu ekinlar hosili kamayadi va mahsulot sifati pasayadi.

Evolysiya jarayonida shumg'iyadoshlarda o'ziga xos biologik hususiyatlari paydo bo'lgan, ular yuqori moslashish darajasiga, tez ko'payish hususiyatiga (1 dona o'simlikda 150-200 ming dona urug'), uzoq vaqt unuvchanligini yo'qotmasdan (10-12 yil) tuproqda saqlanadi, tuproq reaksiysi, atrof muhit harorati va boshqa

omillarning noqulayligiga qaramasdan xo'jayin-o'simlik ildizidagi ajratmalar ta'sirida unib chiqish hususiyatlarga ega bo'ladi.

Shumg'yaning ko'p yillik o'simliklarda parazitlik qiladigan turlari xuddi ko'p yillik o'simliklar singari rivojlanadi va keyingi yilda. agar xo'jayin o'simlik qurib qolmasa, yangi novdalar chiqaradi. Bir yillik o'simliklarda parazitlik qiluvchilari esa xo'jayin - o'simlik bilan birga yoki bir oz keyinroq quriydi.

Shumg'yaning xo'jayin - o'simlik ildizida rivojlanishi quyidagicha kechadi. Shumg'iyani juda mayda urug'lardagi murtak ildiz va poyaga bo'linmagan. Uning urug'pallasi yo'q va bir guruh hujayralardan tarkib topgan, bu hujayralar o'z navbatida zahira oziq moddalar mavjud bo'lgan boshqa hujayralar bilan o'rالgan.

Shumg'iya xo'jayin - o'simlik ildizi bilan qo'shilib o'sadi, bunda u g'udda hosil qiladi. Bunday qo'shilib ketish shu darajada tig'izki, xo'jayin - o'simlik ildizi qaerda tugab, shumg'iya qaerdan boshlanganligini bir qarashda payqash qiyin. Shumg'yaning ba'zi bir yo'g'on novdalari tanada burchak hosil qilib paydo bo'ladi va xo'jayin - o'simlik ildizi tomon egilib uchi ildiz po'stiga kirib oladi va keyin dastlabki novda singari o'sa boshlaydi.

Samarqand viloyatining Bulung'ur, Tayloq, Samarqand va Urgut tumanlaridagi sabzavotchilik, polizchilik va tamakichilikfermer xo'jaliklarida misr shumg'iyasining morfologik belgilarini xo'jayin- o'simlik turiga bog'liqligi yuzasidan tajribalar o'tkazdik. Fadqiqotlarimiz sabzavot, poliz va tamakiekinlarida o'tkazildi. Shumg'iya bu o'simliklarda ayniqsa xo'jayin - o'simlikning jadal o'sish davrida parazitning kuchli shoxlanishi kuzatildi. Bunda u ko'pincha xo'jayin- o'simlikning yaxshi rivojlangan yon ildizlariga yoki ildiz bug'ziga yopishib faoliyat olib boradi.

Fajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, parazitni jadal o'sish va rivojlanishi asosan poliz ekinlarida kuzatiladi. Jumladan, Bulung'ur tumanining polizchilikfermer xo'jaligi dalalarida o'tkazilgan tajribalarda qovun va bodring o'simliklarda shumg'yaning bo'yи mos ravishda 38,3 va 37,1 sm, gul beradigan poyasi 16,8 va 14,2 dona, gullar soni ni 239,1 va 200,2 dona, gulining o'chhami 2,7 va 2,5 sm ni tashkil qildi. Demak, shumg'iya Samarqand viloyatining shimoliy tumanlari sharoitida tamaki, pomidor va kungaboqarga nisbatan qovun va bodringda yaxshi o'sib rivojlanadi va bu o'simliklarga ko'p zarar etkazadi (9-jadval).

9-jadval

Misr shumg'iyaning morfologik belgilarini shakllanishini xo'jayin-o'simlik turiga bog'liqligi

Nº	Xo'jayin-o'simlik	Shumg'iya bo'yisi, sm	Shumg'iyaning gul beradigan poyasi, dona	Gullar soni, dona	Gulining o'lchami, sm
1	Tamaki	32,5	10,8	203,5	2,3
2	Pomidor	35,3	12,2	221,8	2,5
3	Kungaboqar	33,8	13,5	172,4	2,2
4	Qovun	38,3	16,8	239,1	2,7
5	Bodring	37,1	14,2	200,2	2,5



10- rasm. Tamaki dalasidagi gullayotgan shumg'iya.

Parazitni tamakining turli navlarida rivojlanishini aniqlash uchun shumg'iya bilan zararlanish darajasi 65-70 % bo'lgan har bir daladan 10 tadan shumg'iya bilan zararlangan tamaki o'simliklarini yig'ib oldik. Avval tuproqdan tashqaridagi parazitlar soni aniqlandi, keyin esa asta-sekin tamaki ildizlari ochildi va unda parazitlik qilayotgan shumg'iylar soni aniqlandi (10-rasm). Tajribalar natijalari ko'rsatadi, shumg'iya bilan eng ko'p zararlanish tuproqda tamakining Virjiniji va Dyubek 4407 navlarida kuzatildi va bu dalalarda mos ravishda har bir tamaki o'simligida o'rtacha 13 dona shumg'iya to'g'ri keldi. Shumg'iyaning o'rtacha qalinligi har bir o'simlikda tuproq yuzasida 2,8 donani, tuproqda 8,8 donani, jami esa 11,6 donani tashkil qildi (11-rasm, 10-jadval).

10-jadval

Tamaki maydonlarida har bir o'simlikka to'g'ri keladigan shumg'iya miqdori

(Samarqand viloyati Urgut tuman "Obloqul Boymatov qo'rg'oni" fermer xo'jaligi)

No	Tamaki maydoni	Tamaki navi	Tuproq yuzasida	Tuproqda	Jami
1	1-dala	Virjiniya	2	8	10
2	2-dala	Virjiniya	3	10	13
3	3-dala	Dyubek 4407	3	10	13
4	4-dala	Basma	2	7	9
5	5-dala	Virjiniya	4	9	13
6	O'rtacha		2,8	8,8	11,6



11- rasm. Shumg'iya bilan kuchli zararlangan tamakini Virdjiniya navi maydoni

Huddi shunday tajriba Bulung'ur tumanining "O'rta ovul dalasi" fermer xo'jaligi pomidor maydonlarida ham o'tkazildi. Unda shumg'iya soni har bir pomidor

o'simligida o'rtacha tuproq yuzasida 8,3 donani, tuproqda 20,4 donani va jami 25,4 donani tashkil qildi (11-jadval).

Pomidor o'simligida topilgan shumg'iyaning barcha namunalari xo'jayin - o'simlik ildizining turli qismlariga o'rashgan. Bu shumg'iya urug'larining tuproq qatlamida qanday tarqalganligiga bog'liq. Shumg'iya urug'lari xo'jayin - o'simlik ildizi bilan to'qnashganda avval tuproqning yuza qatlamidagi, keyin esa pastki qatlamlardagi urug'lar unib chiqadi, shuning uchun ham shumg'iya poyalarining tuproq yuzasida paydo bo'lishi butun xujayin - o'simlikning vegetatsiya davri davomida sodir bo'lib turadi (12 va 13-rasmlar). Bu borada M.S.Sivsevning (1960) ishlari diqqatga sazovordir. Uning ta'kidlashicha, shumg'iya bilan zararlangan dalalarda shumg'iya yulib olingandan keyin 7-10 kun o'tgach yangi o'simtalari paydo bo'ladi, ular shumg'iyaning xo'jayin - o'simlik ildizida qolgan qismlaridan hosil bo'ladi. Yangi o'simliklar hatto uch marta yulib olingandan so'ng ham paydo bo'lishi mumkin. Bunda parazitning pomidor ildizi atrofida paydo bo'lish radiusi 30-40, ba'zida 70 sm ni tashkil qiladi.

11-jadval

Pomidor maydonlarida bitta o'simlikka to'g'ri keladigan shumg'iya soni
(*Samarqand viloyati Bulung'ur tuman "O'rta ovul dalasi" fermer xo'jaligi*)

Nº	Pomidor maydoni	Tuproq yuzasida	Tuproqda	Jami
1	1-dala	4	18	22
2	2-dala	5	21	26
3	3-dala	1	15	18
4	4-dala	6	23	29
5	5-dala	7	25	32
6	O'rtacha	8,3	20,4	25,4

Shumg'iya urug'lari tuproqda 30-40 sm chuqurlikdan ham o'sadi, bunda diametri 3 sm gacha bo'lgan so'rg'ichli novdalar hosil qiladi. Tuproqda gul hosil qiluvchi novdalar ham o'sadi, lekin tuproq qatlaming qalinligi sababli ular qisiladi va qing'ir-qiyshiq novdalar hosil qiladi. Natijada shumg'iyaning ba'zi bir tuplarida er ostida oqish rangli gul novdalarini paydo bo'ladi. Shunday qilib, misr shumg'iysi pomidorda yashirin holatda ham rivojlanishi mumkin. M.V. Sivsov pomidorning ba'zi bir tuplarida 30-40 donagacha yashirin holatdagi shumg'iya novdalarini topgan. Shumg'iya o'simlikka asosan er ostidaligi vaqtida zarar etkazadi, er yuzasiga chiqib gullash davriga o'tishi uning eng so'nggi rivojlanish bosqichi bo'lib hisoblanadi, chunki gullagandan so'ng ular quriy boshlaydi.



12- rasm. Pomidor ildizidan unib chiqayotgan shumg iya

Samarqand viloyati Urgut tuman “Ne’matjon Xolmurodov zamini” fermer xo‘jaligi bodring maydonlarida shumg‘iya o‘simligi o‘rtacha tuproq yuzasida 3,8 donani, tuproqda 13,6 donani, jami esa 17,4 donani tashkil qildi (2.3-jadval).

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi tajribasida odatda shumg‘iyaga qarshi kurashda mexanik usul qo‘llaniladi, ya’ni shumg‘iya urug‘ hosil qilmasdanoldin qo‘l bilan yulib olinadi. Bu usul har doim ham yaxshi samara beravermaydi, chunki bunda xo‘jayin o‘simlik ildiz tizimi shikastlanadi. Bundan tashqari, shumg‘iyaning o‘simlik ildizida qolgan qismlari o‘zini-o‘zi tiklash qobiliyatiga ega bo‘lganligi sababli yana unib chiqadi (14-rasm).

12-jadval

Bodring maydonlarida bitta o‘simlikdagi shumg‘iya soni

(*Samarqand viloyati Urgut tuman “ Ne’matjon Xolmurodov zamini” fermer xo‘jaligi*)

Nº	Bodringmaydoni	Tuproqyuzasida	Tuproqda	Jami
1	1-dala	4	14	18
2	2-dala	5	17	22
3	3-dala	3	13	16
4	4-dala	4	11	14
5	5-dala	4	13	17
	O‘rtacha	3,8	13,6	17,4



13- rasm. Pomidor dalasida yangidan unib chiqayotgan yosh shumg‘iya.



14- rasm. Pomidor maydonida shumg‘iyani qo ‘lda yilib olinganidan keyin unib chiqgan poyasi

Tadqiqotlarimizda shumg‘iya rivojlanish bosqichlarining boshlanish davrini aniqlash bo‘yicha tajribalar o‘tkazdik (13-jadval). Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki shumg‘iyaning unib chiqish davrining boshlanishi eng avval qovun (14.07) va bodringda (18.07) kuzatilgan bo‘lsa, eng uzoq vegetatsiya davri tamaki, pomidor va kungabogarda kuzatildi, bu o‘simliklarda shumg‘iya o‘sish davrining davomiyligi mos ravishda 42, 40 va 41 kunni tashkil qildi.

13-jadval

Shumg‘yaning rivojlanish davrlarini davomiyligi

№	Xo‘jayin - o‘simlik	Unib chiqishi	Gullash		Meva tugish		Unib chiqishdan o‘sishning oxirigacha bo‘lgan davr, kun
			boshla-nishi	to‘liq gullash	boshla-nishi	to‘liq tugish	
1	Tamaki	21.VII	1.VIII	5.VIII	12.VIII	18.VIII	42
2	Pomidor	25.VII	5.VIII	9.VIII	16.VIII	22.VIII	40
3	Kungaboqar	28.VII	6.VIII	11.VIII	15.VIII	19.VIII	41
4	Qovun	14.VII	23.VII	27.VII	29.VII	3.VIII	38
5	Bodring	18.VII	27.VII	2.VIII	4.VIII	9.VIII	35

Qishloq xo‘jalik ekinlarining shumg‘iya bilan zararlanish darajasi shumg‘yaning xo‘jayin - o‘simlik tanasida o‘sish sur’atlariiga ham ma‘lum darajada bog‘liq bo‘ladi. Bizning turli xo‘jayin - o‘simliklarda shumg‘yaning o‘sish sur’atlarini aniqlash bo‘yicha o’tkazgan tajribalarimiz natijasi ko‘rsatadiki, shumg‘iya tamaki, kungaboqar va qovun o‘simliklarida eng baland o‘sishi mumkin. Bu o‘simliklarda vegetatsiya oxiriga borib shumg‘iya poyalarining balandligi mos ravishda 39,2 , 41,2 va 42, 4 sm ni tashkil qildi (14-jadval).

14-jadval

Shumg‘yaning turli xo‘jayin o‘simliklarda o‘sish sur’ati

№	Xo‘jayin - o‘simlik	Shumg‘iya poyasining balandligi, sm				
		10.VII	22.VII	4.VIII	14.VIII	25.VIII
1	Tamaki	2,1	8,5	17,3	34,3	39,2
2	Pomidor	1,7	7,8	16,5	31,8	37,4
3	Kungaboqar	1,1	7,5	15,2	34,0	41,2
4	Qovun	2,9	8,9	19,3	34,2	42,4
5	Bodring	1,3	6,5	16,1	34,1	38,8

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, shumg'iyaning ba'zi bir turlarida, ayniqsa misr shumg'iyasida parazitlikka moslanish hususiyatlari keskin va kuchli ravishda amalga oshgan, buning oqibatida ularda morfologik o'zgaruvchanlik kuchli namoyon bo'lgan. Gulining kattaligi, urug'lar miqdorining ko'pligi, povasining shoxlanishi va boshqalar bunga misol bo'ladi. Parazit hayot tarziga moslanish jarayonida ularda bir qator biologik hususiyatlar vujudga kelgan. Jumladan, juda ko'p miqdorda urug' hosil qilishi, urug'larining uzoq muddat unuvchanligini yo'qtmasligi va boshqalar.

Shumg'iyaning ba'zi bir turlari madaniy o'simliklar vegetatsiyasining oxirigacha gullab, urug' hosil qilishga moslashgan. Bodring, qovun, pomidor, tamaki va kungaboqar o'simliklarida parazitlik qiladigan misr shumg'iyasining o'sish jadalligida boshqa turlarga nisbatan katta farq sezilmadi.

Misr shumg'iysi xo'jayin o'simlik asosiy ildizlaridan birga o'rashibolganda o'z poyasidan ko'plab yon novdalar hosil qiladi, bu holat madaniy o'simlik vegetatsiya davrining oxiriga (avgust, sentyabr) to'g'ri keladi. Parazitning zararliligi faqat tuproq yuzasidagi novdalari va gullariga bog'liq bo'lmay, balki tuproq ostidagi yosh novdalarga ham bog'liqidir. Shumg'iya urug'larining asosiy qismi 20-30 sm chuqurlikdan o'sib chiqadi. Shuning uchun shumg'iyaga qarshi kurashda chuqur (30-35 sm) shudgorlash tavsiya qilinadi.

Shumg'iyaning ekinlar hosili va sifatiga ta'siri.

O'zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari orasida sabzavot va poliz ekinlari eng ko'p ekiladigan hudud hisoblanadi. Bu yurtda etishtiriladigan sabzavot va poliz mahsulotlari faqat serhosilligi bilan emas, balki mabsulot sifati bilan ham doning taratgan.

Sabzavot va poliz ekinlari hosildorligining oshishiga jiddiy to'sqinlik qilayotgan eng asosiy omillardan biri parazit o'simlikshumg'iya bo'lib hisoblanadi. Ushbu parazit o'simlikning sabzavot va poliz ekinlari hosildorligiga ta'sirini o'rganish ho'yicha Samarqand viloyatining bir necha tumanlarda misr shumg'iysi bilan kuchli zararlangan va zararlanmagan dalalardagi sabzavot va poliz ekinlarining bir gektar maydonda olingan hosilini aniqlash orqali shumg'iyaning zararni baholashga harakat qildik. 2.6 -jadvalda shumg'iyaning pomidor hosiliga ta'sirini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba natijalari keltirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, shumg'iya ta'sirida pomidor hosilining eng ko'p kamayishi Bulung'ur tumani termer xo'jaliklarida kuzatildi. Bu tumanda shumg'iya bilan zararlanmagan maydonlarda bir gektardan 52,9 tonna pomidor hosil olingan bo'lsa, zararlangan maydonlardan 41,7 tonna hosil olingan, hosildorlik farqi 11,2 tonnani tashkil qilgan holda, 21,2 % hosilni kamayishiga olib kelmoqda (15 -

(15-rasm) Xuddi shunday holat Samarqand viloyati Jomboy tumanining “Farangiz nurli qummi” va Urgut tumanining “Nasimboy Qurbonov saxovati” fermer xo‘jaliklarida ham kuzatildi. Bularda hosilni kamayishi mos ravishda 17,3 va 17,5 % ni tashkil qildi.

Samarqand viloyati Urgut tumani fermer xo‘jaliklarida shumg‘iya parazit bezonma o‘tining tamaki hosilini kamaytirishga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tajribalar tumanining 5 ta tamakichilik fermer xo‘jaliklari dalalarida o‘tkazildi. Tajribalar tamakining Virjiniya navida olib borildi.

15-jadval

Samarqand viloyati tumanlarida shumg‘iyaning pomidor hosiliga ta’siri

№	Tuman	Hosildorlik, t/ga		Farqi, t/ga	Hosilni kamayishi, %
		zararlan-magan	zarar-langan		
1	Fayloq	57,8	49,3	8,5	14,7
2	Samarqand	61,4	52,4	9,0	14,6
3	Bulung‘ur	52,9	41,7	11,2	21,2
4	Jomboy	48,4	40,0	8,4	17,3
5	Urgut	42,3	34,9	7,4	17,5
6	O‘rtacha	52,6	43,7	8,9	-



15-rasm. Shumg‘iya ta’sirida qurib qolgan pomidor o’simliklari

Ular orasida Urgut tumanining “Sherzod Nasimboev nurli dalasi” fermer xo‘jaligi shumg‘iyadan eng ko‘p zarar ko‘rdi, unda tamaki hosilining kamayishi har hektar maydondan 27,2 % ni tashkil qildi (16-rasm, 16-jadval).

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Samarqand filiali tajriba dalasida shumg'iya-parazit begona o'tining qovun hosildorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkazildi. Bir-biriga solishtirish maqsadida 3 ta tajriba dalasidagi qovun hosildorligi o'rganildi. Har qaysi dalada muhit sharoiti va zararlanish darajalari yaqin bo'lganligi sababli farq uncha katta bo'lmadi. Shumg'iya zararidan hosilning kamayishi 12,2 dan 14,1 % ni tashkil qildi (17-jadval).

16-jadval

Shumg'iyaning tamaki hosiliga ta'siri, ga/t

(Tamakini Virjiniya navi)

№	Fermer xo'jaliklari	Hosildorlik, t/ga		Farqi, ga/t	Hosilni kamayishi, %
		zararlan-magan	zarar-langan		
1	"Ahrorqul Akbarali"	2,1	1,7	0,4	19,0
2	"Do'sanbek porloq diyori"	2,3	2,0	0,3	13,0
3	"Maqsudjon porloq zhami"	1,9	1,6	0,3	15,8
4	"Chorvoq yashil dalasi"	2,2	1,8	0,4	18,1
5	"Sherzod Nasimboev nurli dalasi"	2,2	1,6	0,6	27,2

Ilmiy manbalardan olingen ma'lumotlarga qaraganda, parazit o'simlik hujayralarining so'rish kuchi har doim xo'jayin o'simlikdan yuqori bo'ladi. Parazit xo'jayin o'simlikni kuchli suvsizlantiradi, oziqa moddalar bilan to'ynishini kamaytiradi va quritadi. Kechki paytda havo haroratining pasayishi va namligining ortishi tufayli parazit zararlagan o'simlikda transpiratsiya jarayoni yana tiklanadi va suv yo'qotilishi kamayadi.

Poliz ekinlari har xil navlarida transpiratsiya jadalligini shumg'iya bilan zararlanishga bog'liq holda o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, poliz ekinlarining o'rganilayotgan deyarli barcha turlarida shumg'iya bilan zararlanmagan o'simliklarda 1m^2 barg yuzasida 1 soatda bo'ladigan transpiratsiya jadalligi zararlangan o'simliklarga nisbatan bir necha marta kamayganligi qayd etilgan (Kabulov D.T., Muqumov X.M., Fayzieva S.Z., 1981).



16- rasm. Tamaki maydonida turli rivojlanish davrdagi shumg‘iya

Shumg‘iya bilan zararlangan va zararalanmagan poliz ekinlarda quruq moddaning to‘plash jadalligi 18-jadvalda keltirilgan (D.T.Kabulov, 1981).

17-jadval

Shumg‘iya-parazit begona o‘tining qovun hosildorligiga ta’siri

Xo‘jalik	Hosildorlik, ga/t		Hosildorlikni kamayishi	
	zararlanmag an	Zararlanga n	ga/t	%
Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Samarkand filiali tajriba dalasida (3 dalada)	21,2	18,6	2,6	12,2
	23,4	20,1	3,3	14,1
	18,6	16,3	2,3	12,4

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, shumg‘iya bilan zararlangan o‘simliklarda quruq modda to‘plash jadalligi sezilarli darajada pasayadi.

Ushbu tadqiqotlar shumg‘iyaning ommaviy ko‘payish davrida ancha chidamli navlarda va shumg‘iya bilan kuchli zararlangan tuplarda o‘tkazilgan.



17- rasm. Pomidor ekilgan dalalardan shumg iyani yig'ish



18- rasm. Tamaki maydonlaridan shumg iya yig'ish

18-jadval

Shumg'iya bilan zararlangan ekinlarda quruq moddaning to'planish jadalligi
 (D.T.Kabulov, 1981)

№	Ekin turi	1m ² barg yuzasida 1 soatda quruq moddaning to'planishi, g	
		Zararlannagan	Zararlangan
1	Bodring	1.24	1.01
2	Qovun	1.95	1.72
3	Qovoqcha	2.07	1.24

O'simlik barglarida quruq moddaning to'planishiga shumg'iyaning bevosita tu'siri va poliz ekinlariga zarari hali etarlicha o'rganilgan emas. Transpiratsiya jadalligi va quruq moddaning to'planishi kabi fiziologik jarayonlar bevosita o'simlik bargida sodir bo'ladi. Shuning uchun barg yuzasining maydoni, o'lchami va massasini o'rganish katta ahamiyatga ega. Zararlangan va zararlanmagan o'simliklarning to'liq vazni, zararlangan o'simlikda transpiratsiya va quruq modda to'planish jadalligininghamda barg vazning pasayishi ekin hosildorligining keskin kumayishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtida o'simliklar o'zaro munosabatida fiziologik-biokimyoiy usoslariga katta e'tibor berilmoqda. O'simliklar o'zaro munosabatlari va o'zaro tu'siriga muhitning diomo o'zgarib turuvchi sharoitini, o'simlikning fiziologik va biokimyoiy hususiyatlarining o'zgarishini o'rganish muhit sharoitini aniqlashda kulta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muhitning biokimyoiy rolini aniqlash, o'simlikka ta'sir ko'rsatuvchi ekologik omil sifatida qisman L.M.Pinevich (1934), E.G.Kling (1934), T.I.Demidenko (1940), V.V.Kiseleva (1940), I.T.Beylin (1940), B.A.Keller (1956), I.A.Titova (1952), A.M.Grodzinskiy (1965, 1966), G.A.Saidze, K.E.Ovcharova (1966) va boshqalarining ilmiy ishlarida bayon qilingan.

Parazit o'simlik uchun muhitning asosiy elementi, u bilan yaqin aloqada bo'lgan xo'jayin - o'simlikning biologik va biokimyoiy xossalari bo'lib hisoblanadi. Fiziologik -biokimyoiy jarayonlarning o'zgarishi shumg'iyaning turli xil oilalarga inansub bo'lgan madaniy va yovvoyi o'simliklarda parazitlik qiluvchi turlarida ayniqsa kuchli seziladi. Markaziy Osiyo sharoitida misr shumg'iysi 90 dan ortiq tur o'simliklarda parazitlik qilishi aniqlangan (Qobulov J.T., Muqumov X.M., 1966).



19-rasm. Fitomiziya pashshasi urug'i bilan terilgan shumg'iya poyalari



20 -rasm. To 'liq pishgan va urug' hosil qilgan shumg'iya o'simligi


19—jadval

**Xo'jayin-o'simlikning biokimyoviy tarkibiga shumg'iyaning ta'siri
(S. Fayzieva, 1995y)**

Xo'jayin o'simlik	oqsil, %		azot, %		shakar, %		kletchatka, %		kul, %	
	Zara nnigan	Zara rlangan	Zara lanmagan	Zara rlangan	Zara nnigan	Zara rlangan	Zala rianmagan	Zar rlangan	Zara lanmagan	Zara rlangan
Qovun	8,77	11,96	1,91	1,40	8,13	4,29	16,78	18,98	22,27	21,45
Tarvuz	8,62	8,29	1,38	1,34	6,78	6,10	22,41	23,43	18,89	16,98
Oshqovoq	12,40	10,73	3,30	2,52	5,15	2,66	18,34	21,64	16,17	15,16
Qovoqcha	13,42	10,93	2,74	2,55	1,85	1,13	16,49	18,23	29,38	21,09
Bodring	-	-	-	-	2,13	1,86	18,94	21,72	26,86	25,40
Pomidor	5,93	5,18	0,95	0,82	2,71	2,08	24,33	25,46	19,47	17,97
Kartoshka	5,90	5,68	3,61	3,91	-	-	24,60	30,93	19,11	12,19

Xo'jayin - o'simlik va misr shumg'iysi to'qimalarining kimyoviy tarkibini solishtirish maqsadida Samarcand davlat universiteti olimlari tomonidan 1200 ta tahlillar o'tkazilgan. Tahlillar natijasida shumg'iya bilan zararlangan va

zararlanmagan poliz hamda sabzavot ekinlari tarkibidagi suv, oqsil, azot, qand, kletchatka va yog' miqdori yangi o'simlikning umumiyl vegetativ massasiga nisbatan foizlarda aniqlangan. Bir vaqtning o'zida misr shumg'iysi vegetativ organlari tarkibidagi moddalar ham aniqlangan.



21-rasm. Daladan terilgan shumg'iya poyalarini qoplarga joylashtirish

Aniqlangan barcha moddalarni shumg'iya ta'sirida kamayishi kuzatiladi, faqat oqsil miqdorining bir oz ko'payishi sodir bo'lgan. Shumg'iya bilan zararlangan tarvuz, oshqovoq va qovoqcha mevalarining kimyoviy tarkibi tahlil qilinganda hamma variantlarda oqsil, azot va shakar miqdori zararlanmagan o'simliklardagiga nisbatan kamayganliga aniqlangan, faqat kletchatka miqdori zararlanmagan mevada zararlanganiga nisbatan ko'pganligi kuzatilgan (18 – jadval).

Yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlar va dalillar ko'rsatadiki, shumg'iya o'zining o'sish va rivojlanish jarayonida ko'p miqdorda organik va mineral moddalarni o'zlashtiradi, bu esa xo'jayin - o'simlik organizmida fiziologik jarayonlarning buzilishiga olib keladi. Bu pirovard natijada, xo'jayin - o'simlikning vegetativ va generativ organlari shakllanishini keskin susaytiradi


Shumg'iya qarshi biologik usulda kurashish.

O'zbekistonda parazit begona o'tlarga qarshi biologik usulda kurashish o'tgan asrning 70 – 80 yillarda Samarqand davlat universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va joriy etilgan. Lekin, ushbu yo'nalishdagi ishlar keng joriy qilinmagan va uning ayrim masalalari amaliy jihatdan chuqur o'r ganilmagan. Begona o'tlarga qarshi kurashda yakunlangan ilmiy echimlardan yagona hisoblangan shumg'iya qarshi

fitomiza pashshasini (*Phytomiza orobanchia Kalt*) ko'rsatish mumkin (Bronshteyn, 1970). Parazit begona o'tlarga qarshi biologik kurash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Qirg'izistonda parazit begona o't - zarpechakka qarshi alternariya zamburug'ini qo'llashda ham urinishlar bo'lган. Keyingi yillar (1996-2009) davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi zoologiya instituti va Evropa biologik nazorati laboratoriysi hamda SAVI Bioscience Shveysariya markazi bilan hamkorlikda ashaddiy begona o't - kakra (*Acroptilon repens L.*) zaharli yovvoyi o'simligi tabiiy kushandalarni o'rganish yuzasidan bir muncha tadqiqotlar amalgaga oshirilishi tufayli, kakraning o'nlab gerbisaglari aniqlandgan. Ular orasida ayniqsa *Aceria*, *Cochilamorpha*, *Jaapiella*, *Auleacidae* va boshqa avlodlarga oid gerbisaglarni alohida qayd qilish mumkin.

CABI Biosiense Shveysariya markazi bilan O'zR FA Zoologiya instituti olimlari hamkorlikda gall arisi *Aulacidea acroptilonica* dan foydalanib *Acroptilon repens*ga (Shimoliy Amerikaga 120 yil oldin tasodifan olib kelingan) qarshi biologik kurash ishlab chiqildi. Biologik nazoratni ikkinchi agenti – gall pashshasi *Jaapiella ivannikovi* ham begona o't kakraga qarshi AQShda joriy qilindi.

Bu tabiiy kushandalarni chuqur o'rganish, kelajakda nafaqat O'zbekistonda begona o't kakraga qarshi biologik nazoratni amalga oshirish imkonini beradi.



22-rasm. Fitomizani shumg'iya o simligida hayot zanjiri



23-rasm. Fitomiziya pashshasi urug'i bilan terilgan shumg'iya poyalarini quritish.

Shumg'iaga qarshi kurash. Shumg'iyalari (*Orobanchaceae* oilasi)- texnika, sabzavot- poliz va boshqa ko'pgina em-hashak ekinlarining gul paraziti hisoblanadi.



24-rasm. Fitomiziya pashshasini shumg'iya urug'i bilan oziglanishi.

Rossiya, Kavkaz orti mamlakatlari va Markaziy Osiyo davlatlari xududlarida avlodga mansub 100 turdag'i shumg'iylarbor. Yevropa qismida, O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istonda tarqalgan shumg'iylarningikki avlodining etti turi ko'pgina qishloq xo'jalik ekinlarining, shu jumladan, tamaki, kungaboqr, qovun, tarvuz, bodring, pomidor va boshqa sabzavot-poliz ekinlarining hamda yulg'un bilan saksovulning ham xavfli paraziti hisoblanadi.

Turning tipik vakili misr shumg'iysi - *Orobanche aegyptiaca* Pers. o'simliklarning 29 oilasiga mansub 120 xildan ortiq ekinni zararlaydi. Ayniqsa.

qovoqsimonlar, ituzumsimonlar, soyabongullilar, murakkab gullilar, kesma gullilar va boshqa oilalarga mansub o'simliklar qattiq zararlanadi.

Shumg'iyalar -bir yillik yoki ko'p yillik o'tsimon o'simliklar bo'lib, tangasimon bargli, oddiy va shoxdor poyalarga ega. Bu parazitlar mustaqil ravishda fotosintez qilish qobiliyatiga ega emas. O'simlikka ular gaustoritlari (so'rg'ichlari) yordamida yopishib oladi va undan suv hamda oziq moddalarni so'radi. Natijada o'simlikda modda almashinushi buziladi, u kuchsizlanadi, mevasining ta'mi yomonlashadi, hosildorlik 50-70 foizga kamayadi. Qattiq zararlanish oqibatidaesa o'simlik nobud bo'ladi.

Butun hayoti davrida xo'jayin-o'simlik bilan jips aloqada bo'Igani hamda ko'plab urug' tugishi(bir poyada 40 ta gul bo'lib, har bir gulda 25 ming dona urug' bo'ladi) va tuproqda urug'larning 15 yildan keyin ham o'sib chiqish qobiliyatiga ega bo'Igani tufayli shumg'iya bilan kurashish ancha murakkabdir.



25-rasm.Fitomiziya pashshasi shumg'iya gulida

Shumg'iya urug'lari tuproqda benihoya ko'p miqdorda yig'iladi (1 m^2 maydonda 10 milliongacha), u keyinchalik tezlik bilan orta boradi va ikkinchi yil bunday erga zararlanuvchi ekinlarni ekish ularni foydasiz qilib qo'yishi mumkin.

Shumg'iya guldonlari butun vegetatsiya davrida tuproq ustida paydo bo'lib turadi. Urug'i shamol, sug'orish suvi va hayvonlar yordamida osonlik bilan tarqaladi

Shumg'iyaga qarshi kurashda kimyoviy dorilar ham, qo'llda terish ham ijobjiy natija bermaydi. Bu parazitning eng samarali usulini topish maqsadidauning tabiiy kushandalari – gerbisaglari o'rganildi. Bu borada fitomiza pashshasi (*Phytomyza orobanchia* Kalt.) eng foydali bo'lib chiqdi (Bronshteyn, 1970). Uning lichinkasi shumg'iya urug'ini eydi yoki uni zararlaydi, natijada ularning unib chiqish qobiliyatini yo'qoladi (24 va 25 - rasmlar).

Fitomizani shumg'iyaga qarshi qo'llash. Fitomiza - *Phytomyza orobanchia* Kalt. (ikkiganotlilar turkumi - Agromyzidae oilasi), g'umbaklari qishni urug' qobig'i ichida o'tkazadi. Qishlab chiqqan g'umbakdan fitomiza sutkalik o'rtacha harorat 20

'S dan yuqori bo'lganida uchib chiqadi. Qisqa davr oziqlanishdan so'ng ular jyllashadi va urg'ochi fitomiza o'z tuxumlarini shumg'iyaning ochilgan guliga qo'yadi. Bir urg'ochi fitomiza 200 ga yaqin tuxum qo'yib, 1,5-2 kundan so'ng tuxumlardan lichinkalar ochib chiqib, shumg'iya tugunchalari ichiga kirib olib, uning xom urug'larini eya boshlaydi (26-rasm).

Lichinkalarning bir qismi o'z rivojlanishini gul ko'sagida tamomlaydi va shu yerning o'zida g'umbakka aylanadi, ular ko'sak devorchasini kemirib teshib, yupqa pardacha qoldiradi. Bu pardachani fitomiza osonlik bilan yirtib uchib chiqadi. Lichinkalar poya bo'y lab harakat qilib, shumg'iya tugunining asosini eb bitiradi. O'z rivojlanishini tamomlab, u epidermisni yorib chiqadi. Fitomizadan qattiq zarar ko'rgan poya ilma-teshik bo'lib ketadi.

Lichinkalik davri (iqlim sharoitiga qarab) 14-20 kun, g'umbaklik davri 7-9 kun, fitomizaning to'liqrivojlanish davri esa 20-36 kun davom etadi. Voyaga etgan fitomiza 3-4 mm o'chamdagি hasharot bo'lib, u 6 haftagacha yashaydi.



26-rasm. Fitomiziya pashshasining etuk zoti

Tabiiy sharoitda shumg'iyaning tarqalishiga fitomiza ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatadi. Fitomizaning butun rivojlanish davri faqat shumg'iya oilasiga kiruvchi o'simliklarda o'tadi. Fitomiza bilan shumg'iylarning rivojlanishi sinxron bo'ladi. O'zbekiston sharoitida fitomiza 5-6 nasl berishi mumkin.

Sabzavot hamda poliz ekinlari va tamaki agrotexnikasi (sug'orish, chopish, yumshatish, o'g'itlash va boshqalar) shumg'iyaning urug'dan ko'payishiga yordam beradi va qishlash davri uzoq davom etadigan fitomizani, uni yo'qotishdagi ahamiyatini keskin kamaytirishi aniqlangan. Shu sababli, fitomiza qishlovdan chiqqan kam sonli g'umbaklardangina uchib chiqadi, ularning ko'p qismini yirtqich

qovoqsimonlar, ituzumsimonlar, soyabongullilar, murakkab gullilar, kesma gullilar va boshqa oilalarga mansub o'simliklar qattiq zararlanadi.

Shumg'iyalar -bir yillik yoki ko'p yillik o'tsimon o'simliklar bo'lib, tangasimon bargli, oddiy va shoxdor poyalarga ega. Bu parazitlar mustaqil ravishda fotosintez qilish qobiliyatiga ega emas. O'simlikka ular gaustoritlari (so'rg'ichlari) yordamida yopishib oladi va undan suv hamda oziq moddalarni so'radi. Natijada o'simlikda modda almashinushi buziladi, u kuchsizlanadi, mevasining ta'mi yomonlashadi, hosildorlik 50-70 foizga kamayadi. Qattiq zararlanish oqibatida o'simlik nobud bo'ladi.

Butun hayoti davrida xo'jayin-o'simlik bilan jips aloqada bo'lgani hamda ko'plab urug' tugishi (bir poyada 40 ta gul bo'lib, har bir gulda 25 ming dona urug' bo'ladi) va tuproqda urug'larning 15 yildan keyin ham o'sib chiqish qobiliyatiga ega bo'lgani tufayli shumg'iya bilan kurashish ancha murakkabdir.



25-rasm. Fitomiziya pashshasi shumg'iya gulida

Shumg'iya urug'lari tuproqda benihoya ko'p miqdorda yig'iladi (1 maydonda 10 milliongacha), u keyinchalik tezlik bilan orta boradi va ikkinchi yil bunday erga zararlanuvchi ekinlarni ekish ularni foydasiz qilib qo'yishi mumkin.

Shumg'iya guldonlari butun vegetatsiya davrida tuproq ustida paydo bo'lib turadi. Urug'i shamol, sug'orish suvi va hayvonlar yordamida osonlik bilan tarqaladi.

Shumg'iyaga qarshi kurashda kimyoviy dorilar ham, qo'lda terish ham ijobji natija bermaydi. Bu parazitning eng samarali usulini topish maqsadidauning tabiiy kushandalari – gerbifaglari o'rganildi. Bu borada fitomiza pashshasi (*Phytomyza orobanchia* Kalt.) eng foydali bo'lib chiqdi (Bronshteyn, 1970). Uning lichinkasi shumg'iya urug'ini eydi yoki uni zararlaydi. Natijada ularning unib chiqish qobiliyati yo'qoladi (24 va 25 - rasmlar).

Fitomizani shumg'iyaga qarshi qo'llash. Fitomiza - *Phytomyza orobanchia* Kalt. (ikkiyanotlilar turkumi - Agromyzidae oilasi), g'umbaklari qishni urug' qobig'i ichida o'tkazadi. Qishlab chiqqan g'umbakdan fitomiza sutkalik o'rtacha harorat 20

⁹S dan yuqori bo'lganida uchib chiqadi. Qisqa davr oziqlanishdan so'ng ular juftlashadi va urg'ochi fitomiza o'z tuxumlarini shumg'iyaning ochilgan guliga qo'yadi. Bir urg'ochi fitomiza 200 ga yaqin tuxum qo'yib, 1.5-2 kundan so'ng tuxumlardan lichinkalar ochib chiqib, shumg'iya tugunchalari ichiga kirib olib, uning xom urug'larini eye boshlaydi (26-rasm).

Lichinkalarning bir qismi o'z rivojlanishini gul ko'sagida tamomlaydi va shu yerning o'zida g'umbakka aylanadi, ular ko'sak devorchasini kemirib teshib, yupqa pardacha qoldiradi. Bu pardachani fitomiza osonlik bilan yirtib uchib chiqadi. Lichinkalarpoya bo'y lab harakat qilib, shumg'iya tugunining asosini eb bitiradi. O'z rivojlanishini tamomlab, u epidermisni yorib chiqadi. Fitomizadan qattiq zurar ko'rgan poya ilma-teshik bo'lib ketadi.

Lichinkalik davri (iqlim sharoitiga qarab) 14-20 kun, g'umbaklik davri 7-9 kun, fitomizaning to'liqrivojlanish davri esa 20-36 kun davom etadi. Voyaga etgan fitomiza 3-4 mm o'lchamdagি hasharot bo'lib, u 6 haftagacha yashaydi.



26-rasm.Fitomiziya pashshasining etuk zoti

Tabiiy sharoitda shumg'iyaning tarqalishiga fitomiza ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatadi. Fitomizaning butun rivojlanish davri faqat shumg'iya oilasiga kiruvchi o'simliklarda o'tadi. Fitomiza bilan shumg'iylarning rivojlanishi sinxron bo'ladi. O'zbekiston sharoitida fitomiza 5-6 nasl berishi mumkin.

Sabzavot hamda poliz ekinlari va tamaki agrotexnikasi (sug'orish, chopish, yumshatish, o'g'itlash va boshqalar) shumg'iyaning urug'dan ko'payishiga yordam beradi va qishlash davri uzoq davom etadigan fitomizani, uni yo'qotishdagi ahamiyatini keskin kamaytirishi aniqlangan. Shu sababli, fitomiza qishlovdan chiqqan kam sonli g'umbaklardangina uchib chiqadi, ularning ko'p qismini yirtqich

hasharotlar va kasalliklar qirib yuboradi, g'umbaklarning asosiy qismi esa dalalarni shudgorlash mobaynida nobud bo'ladi.

Fitomizaning shumg'iyanı yo'qotishdagi ahamiyatini oshirish maqsadida, uning tabiiy zaxiralardan foydaliladi. Undan tashqari fitomiza laboratoriya sharoitida ham ko'paytirilishi mumkin.


Fitomizaning tabiiy zaxiralari qo'riq va partov yerlarda o'sadigan yovvoyi o'simliklardagi shumg'iyalarda hosil bo'ladi. Fitomiza pashshasi shumg'iya tarqalgan hamma dalalarda uchraydi.

Fitomizaningkuzdaharorat 20 °C dan past sharoitda rivojlanadigan oxirgi nasli - lichinkalari uningkelasi yil uchun avlod qoldiradi. Qishlovchi lichinkalar shumg'iya poyasi epidermisi ostida va uning ildiz yaqinida ko'plab yig'iladi, lichinkalarning bir qismi shumg'iyaning urug' ko'sakchalarida qishlaydi.

Sentyabr oxiri, oktyabr boshlarida dalani haydashga tayyorlashdan oldin tabiiy fitomizani yig'a boshlash kerak.



27-rasm. Fitomizaning tabiiy zaxiralardan foydalanishi.



28- rasm. Fitotiza pashshasini laboratoriya sharoitida shumg'iya urug'i yordamida ko'paytirish

Bunda qishlashga keta boshlagan lichinkalar bilan to'lgan shumg'iyaning quruq poya va urug' ko'sakchalarini hamda kech o'sib chiqqan, ichida faqat g'umbak emas, balki turli yoshdag'i fitomiza lichinkalari ham bo'lgan shumg'iya gulbandini yig'ish kerak. Kuzgi past haroratlarda va yerning birinchi bor muzlashida bu lichinkalar nobud bo'ladi, biroq sun'iy yaxshi sharoit yaratilsa, ular o'z rivojlanishini nihoyasiga etkazadi va g'umbakka aylanadi.

Shumg'iya poyasini sug'urib olishda ildizni tuproq bilan birga ildiz qismiga joylashib olgan g'umbaklarni tushirib yubormaslik uchun ehtiyyotlik bilan sug'urib olish kerak. Yig'ilgan shumg'iya poyalarini avvonda yoyib quritiladi, so'ng qog'oz yoki bo'zdan tikilgan qoplargabosmay solinadi. Bu qoplar qishda yarim yoritilgan, yaxshi shamollatiladigan, quruq sement polli omborlarda havo harorati 6-7 °C va havo nisbiy narmligi 55-60 % dan ortiq bo'lmagan sharoitda saqlanadi. Fitomiza g'umbaklari solingen qoplar omborda osib qo'yiladi yoki 0,5 metrdan past bo'lmagan so'kechaklarga joylashtiriladi.

Chumoli va boshqa yirtqich hasharotlar g'umbaklarni tashib ketmasligi uchun devorga hamda so'kchaklarga 10 sm li yo'chalar qilib, smola surkab qo'yiladi. Qoplar ustiga poya yig'ilgan joy va vaqtini hamda shumg'iya bosgan ekin nomini ko'rsatuvchi yorliq yopishtirib qo'yiladi.

Fitomiza bilan zararlangan shumg'iyanı ekin ekilmagan dalalarda uning har ikki diagonali va bir yon tomoni bo'yicha o'tib, ekin ekilgan dalalarda esa ekin qatorlari bo'ylab yurib yig'iladi. Bir ishchi fitomiza bilan zararlangan shumg'iyanı yig'ish uchun, bir ish kuni davomida, u bilan qattiq zarar ko'rgan maydonlardan(3-4 ball) 50-60 hektar uchun, kamroq zarar ko'rgan maydonlardan esa(1-2 ball) 25-30 hektar yerga ishlov berishga etadigan miqdordagi biologik mahsulotni yig'ib olishi mumkin.

Fitomiza zahirasini ortirish uchun shumg'iya bilan eng qattiq zararlangan tumaki, pomidor, bodring, qovun va tarvuz ekilgan maydonlarda fitomiza urchitish maydoni yaratiladi. Ularga me'yоридагидан 5-6 марта ко'проқ fitomiza tarqatiladi. Bunday maydonlarda juda ko'p fitomiza yig'iladi va shumg'iyaning fitomiza bilanzarlarlanishi juda kuchli bo'ladi. Natijada har bir gulbadanga 150 tagacha va undan ortiq lichinka to'planishi mumkin, bu esa kelgusi yil uchun fitomiza zahirasini yaratishni bir muncha osonlashtiradi. Bir fitomiza urchitish maydonidan (0,01 ga) shumg'iya bilan zararlangan 1000 gasabzavot-poliz va tamaki ekinlarigaishlov berish uchun, etarli miqdordagi fitomizani to'plash mumkin.

Fitomizani urchitish maqsadida ajratilgan maydonlarda fitomiza to'planishini ko'chatyritish uchun, bir tomoni moyli bo'yoq bilan yorqin(sariq, pushti, havo rang, binafsha rang va oq) ranglarga bo'yalgan va ikkinchi tomoniga 20 % li shakar yoki usul sharbatli surkalgan polietilen plynoka parchalari osib qo'yiladi. Iomchilabsug'orish va yomg'ir yoqqandan so'ng bayroqchalar qayta bo'yaladi va

sharbat takroran surkaladi. Maxsus fitomiza urchitish maydonlari bonyod etish uchun, odatda, shumg‘iya urug‘ining katta zahiralari to‘plangan (shumg‘iya bilan zararlanmaydigan) ekinlarni ko‘p yil ekishdan keyin va birinchi yil sabzavot-poliz va tamaki ekinlari ekilgan maydonlardan foydalaniladi.



29-rasm. Shumg‘iya poyalari bilan to‘ldirilgan qoplarni omborxonalarda saqlash

Bu maqsadda sabzavot-poliz ekinlarini etishtirish uchun yangi o‘zlashtirilayotganyerlardan ham foydalanish mumkin.

Fitomizani laboratoriyyada ko‘paytirish. Fitomiza va uning oziqa o‘simligi shumg‘iya ham laboratoriya sharoitida yaxshi ko‘payadi. Masalan. issiqxonaning 10 m² da bir aylantirib ekishda pomidorning 200 ildizi va shumg‘yaning 2 ming gulbandidan 40 mingta fitomiza olish mumkin. Issiqxonaharorati 22–27 °C bo‘lganda shumg‘iya va fitomizaning rivojlanishi uchun juda qulay sharoit paydo bo‘ladi.

Ko‘paytirishni oktyabr oxirida - noyabr oyi boshlarida fitomiza chuqr diapauzasidan oldin boshlash kerak. Dekabr va undan keyin lichinkalarning faolligi susayadi. Fitomizani issiqxonada kartoshka, bodring va pomidorda rivojlanayotgan shumg‘iyada ko‘paytirish mumkin. Bu ekinlarning issiqxonadagi agrotexnikasi hammaga ma’lum.

Shumg‘iyani laboratoriya sharoitida ko‘paytirish uchun yozda va kuzda ekinlardagi shumg‘iya urug‘i pishib etilishiga qarab terib boriladi.

Shumg‘iya urug‘i yaxshiroq va to‘liq unib chiqishi uchun urug‘dondan ajratib olingan shumg‘iya urug‘i petri likobchasiga filtr qog‘oziga ustiga solinadi va 3–4 sutka davomida namlab turiladi. Ekin maysalarini yangi erga ko‘chirib o‘tqazish bilan bir vaqtida shumg‘iya urug‘ini ham 1,5–2 sm chuqurlikka ekiladi. Taxminan 12–14

kundan keyin urug‘ unib chiqadi, yana 6-8 kundan keyin esa uning gulbandlari ko‘rina boshlaydi.

Bir tup ekinni zararlantirish uchun 25-30 dona shumg‘iya urug‘i olinadi. Xona havo harorati 24-28 °C bo‘lganida shumg‘iya 24-29 kunda gullaydi.



30 - rasm.Fitomizani maydonlarga tarqatish uchun qog‘oz qoplarni tayyorlash

Fitomizani laboratoriyyada ko‘paytirish uchun terib keltirilgan va ma’lum ekinlarga mo‘ljallangan fitomiza g‘umbaklarini 100 donadan qilib probirkalarga solinadi, bu erda ular 23-25 °C haroratda va 60-65 % nisbiy namlikda saqlanadi. Fitomizani uchib chiqish muddati g‘umbaklanish muddatiga bog‘liq.

Uchib chiqqan pashshalarni 20 % li shakar sharbati bilan oziqlantiriladi. Fitomiza mana shu probirkaga ichida juftlashadi. So‘ngra uni shumg‘iya gullab turagan issiqxonaga keltirib, probirkalarning og‘zi ochiladi va pashshalar birin-ketin shumg‘iya guliga o‘ta boshlaydi va u erda tuxum qo‘yadi.

Dalaga fitomiza tarqatish texnologiyasi. Dala sharoitida shumg‘iya birinchi ko‘chatlarining va gulining paydo bo‘lishi tuproq harorati +20 °C, havoning o‘rtacha sutkalik harorati esa 22-23 °C bo‘lganida boshlanadi. Bu diapauzadagi g‘umbaklardan fitomiza uchib chiqish davriga mos keladi. Shuning uchun dalaga fitomiza tarqatishni barvaqtroq, havoning o‘rtacha sutkalik harorati 17-18 °C ga etishi bilan, taxminan fitomiza uchib chiqishidan 2 hafta avval o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Dalaga fitomiza tarqatish gektar boshiga: 500 g‘umbak (ekinzor 1-2 ball zararlanganda) va 1000 g‘umbak (3-4 ball zararlanganda) hisobidan amalga oshiriladi. Fitomizani dalaga ikki usul bilan tarqatish mumkin.

Birinchi usul: diapauzadagi fitomiza g‘umbaklari bo‘lgan shumg‘iya poyalari qog‘oz qoplarga joylanadi. Yozda tez-tez yomg‘ir yog‘ib turadigan tumanlarda esa

polietilen plynokadan tikilgan qoplarga joylanadi.Bu qoplar erdan 60-80 sm yuqorida maxsus qoziqlarga har gektarga bitta qop hisobidan ilib qo'yiladi. Qop shamolda tushib ketmasligi uchun uni yuqori va pastki qismidan bog'lab qo'yiladi.

Qopning 2/3 yuqori qismida uning o'rtasidan eni 8 sm va bo'yisi 10 sm to'g'ri burchakli darcha ochiladi va ajratilgan kesma olib tashlanmasdan tashqariga egib, maydoncha hosil bo'ladigan qilib qaytariladi. Bu maydonchaga yupqa qilib 20 % li shakar yoki asal sharbat surkaladi. Diapauzadagi g'umbaklardan uchib chiqayotgan pashsha bu erda qo'shimcha oziqlanadi, ular tezda juftlashadi va gullab turgan shumg'iyyaga tuxum qo'yishga kirishadi. G'umbakli ilib qo'yilgan qoplari, albatta kuzgacha saqlanishi kerak. Sentyabr oxirida bunday qoplari yig'ib olinadi va uning ichidagi qoldiqlari bilan bиргага оқиб ўборилади.

Ikkinci usul: fitomizaning 3 sutka davomida 2,5-3 km uchishini hisobga olib, Samarqand davlat universiteti olimlari tomonidan fitomizariy quti konstruksiya qilingan. Bu qutiga 25-30 hektar ekin maydoniga etadigan biologik mahsulot joylashtiriladi.

Fitomizariyaga g'umbaklarni kuzda omborxonalarda diapauzadan o'tkazmay ham joylashtirish mumkin. Bu holda ikki jarayon: g'umbaklarni yig'ish va dalalarga fitomiza tarqatish ishi bir vaqtida bajarilib, sarflanadigan mablag' ham ikki marta kamaytiriladi.

Kuzda (kelasi yili dalalarga ishlov berish uchun) fitomizariyaga g'umbaklar joylashtirishidan oldin, uning ichidagi shumg'iya poyalari va zararlanmay qolgan ko'saklari va urug'lari yig'ilib yoqib yuboriladi.



31-rasm. Shumg'iya poyalari joylashtirilgan qoplari

Fitomizaning samaradorligini oshirish maqsadidada lalarga fitomiza pashhasini tarqatishda turli ekinlardan yig'ilgan fitomiza populyasiyalarini qo'llash kerak. Masalan, pomidor maydonlarida yig'ilgan g'umbaklardan chiqqan fitomizadan bodring maydonlarida foydalanish va qovun maydonidan terilganini pomidor maydonida foydalanish va hokazo.

Dalalarga fitomizani ertalab tarqatish maqsadga muvofiq: bunda bir kunda bir ischi 50-60 hektar maydonga biomahsulotni tarqata oladi. Tavsiya etilayotgan turqatishning ikkala usuli hamg'umbaklarni entomofaglar, kasalliklar, mexanik jurohatlanishlardan va boshqa salbiy ta'sirlardan saqlab qoladiva fitomiza pashshalarining shumg'iya bilan sinxron rivojlanishini ta'minlaydi.



32-rasm. Shumg'iya poyalarini qoplarga joylashtirish

Biologik vosita sifatida fitomizadan uzlusizfoydalanish, sabzavot-poliz ekinlarining shumg'iyanidan zararlanishini 3-4 yil ichida va tamakizorlarda esa 4-5 yil ichida xo'jalikda iqtisodiy jihatdan sezilmaydigan darajagacha kamaytirish imkonini beradi.

Samarqand viloyati tumanlari xo'jaliklari ma'lumotlariga ko'ra, fitomizani uzlusiz 3-4 yil davomida qo'llash, sabzavot va poliz ekinlarining hosildorligini oshirgan va mahsulot sifatini yaxshilashni ta'minlagan.

Fitomiza pashshasini shumg'iya qarshi qo'llash

Fitomiza pashshasi *Phytomyza orobanchia* nomi bilan 1872 yilda nemis olimi Kultenbax tomonidan tavsiflangan. Hozirgi vaqtdagi tasniflash bo'yicha ikkiqanotlilar (*Diptera*) oilasining *Agromyzidae* kenja oilasiga kiritilgan. *Agromyzidae* kenja oilasiga 1000 dan ortiq tur birlashgan. Fitomiza pashshasi ham shu oilaning tipik vakili bo'lib hisoblanadi.

Ko'pgina mualliflarning ta'kidlashicha, Samarqand viloyati iqlim sharoitida fitomiza parazit begona o't – shumg'iada oziqlanadi va iqlim sharoitiga qarab 5-6, ayrim yillari 7 martagacha avlod beradi. Fitomizaning uchib chiqishi shumg'iyaniga

gullashi bilan bog'liq. Samarqand viloyati sharoitida uning uchib chiqishini boshlanishi may oyi oxirida kuzatilgan, iyun oyida esa to'liq uchib chiqishi va bu holat oktyabr-noyabr oylarigacha davom etishi aniqlangan. Fitomiza shumg'iyaning rivojlanish bosqichlarini hamma davrida zararlab, o'zining hayot faoliyatini endoparazit sifatida namoyon qiladi.



33-rasm. Tamaki maydonlariga qoplarni joylashtirish

Shu sababli uning rivojlanish bosqichlari (tuxum, lichinka, g'umbak va imago) juda qulay sharoitda va noqulay ob-havo sharotlaridan himoyalangan muhitda o'tadi.

Fitomiza pashshasi imagosi qishlovdagi g'umbakdan havoning o'rtacha harorati 20 °C dan oshganda uchib chiqadi va qisqa oziqlanishidan keyin (1-1,5 kundan so'ng) juftlashadi hamda tuxum qo'ya boshlaydi.

Havoning o'rtacha harorati 28-30 °C va nisbiy namligi 65 % bo'lganda 1,5-2 kundan so'ng lichinkalar paydo bo'la boshlaydi. Shumg'iyaning gulida paydo bo'lgan lichinkalar dastlabki davrda gul changlari bilan, keyinchalik pishmagan urug'lar bilan oziqlanadi. Ularning ayrimlari 7-8 kundan so'ng asosiy poya bo'ylab, pastki tomonga harakatlana boshlaydi va ildiz bo'g'zida yoki poya epidermisi ostida g'umbak hosil qiladi. Ayrimlari shumg'iya gulida oziqlanishni davom ettiradi va tuxumdan chiqqach 12-13 kundan so'ng g'umbakka aylanadi.

Shumg'iya poyasi va ildiz bo'g'zida joylashgan g'umbaklar epidermisni yorib uchib chiqadi. Zararlangan shumg'iya poyasiga parazit zamburug' *Fuzarium orobanches* Jacz. oson kirib, uni chirishini tezlashtiradi.

Odatda, fitomizani g'umbaklik davri 7-8 kun davom etadi. Urg'ochi fitomiza o'ttacha 180-200 ta va undan ko'proq tuxum qo'yadi, bunda shumg'iyaning bir poyasida 200 va undan ortiq tuxum qo'yishi mumkin. Fitomizani tuxum qo'yish davri samarali haroratga bog'liq holda ularni uchib chiqish davrining oxirigacha davom etadi.

Fitomizaning rivojlanish davri iqlim sharoitiga bog'liq holda 20 kundan 36 kungacha davom etishi mumkin. Fitomiza pashshasini diapauzasi uzoq davom etish hususiyatiga ega bo'lib, shumg'iyaning gul hosil bo'lisl darajasi va jadalligiga chambarchas bog'liq.

Fitomiza pashshasini erta bahorda uchib chiqishi uning xo'jayin o'simligi shumg'iyaning rivojlanishi bilan to'liq mos kelishi pashshaga boshqa oraliq ekin kerak bo'lmasligini ta'minlaydi. Uning har bir avlodni keyingi avlodni hisobiga ko'payib boradi va Samarqand viloyati sharoitida sentyabr oyida maksimal darajaga etadi.

Samarqand viloyati sharoitida fitomiza g'umbagining diapauza fazasiga kirishi kuz oylariga to'g'ri keladi va bu holat harorat 20°S dan past bo'lgan sharoitda amalgaloshadi. Bu paytda xo'jayin o'simlik shumg'iya meva tugish davrida hamda oziq moddalarni jadal to'plash holatida bo'ladi.

G'umbakka kirish oldidan lichinkalar jadal oziqlanadi va oziq moddalarni to'play boshlaydi.



34 – rasm. Tamaki maydonlariga shumg'iya poyasi joylashtirilgan qoplardan fitomiziya uchib chiqishini fermyerlarga tushuntirish

Diapauza jarayoni butun qish davrida davom etadi va bu holat mavsumiy va yillik xarakterga ega bo'ladi. Etuk hasharotni uchib chiqish davri cho'zilib ketadi. Shu sababli fitomiza g'umbagidan imagoning uchib chiqish davrining birinchi qismida 35 %, keyin 20, 15, 10, va 5 % imagolar uchib chiqadi.

Kuzatuvlardan aniqlanganki, dastlabki uchib chiqqan fitomizani ko'p qismini erkak zotlar tashkil qiladi, lekin oxirgi davrda urg'ochi pashshalar miqdor jihatdan ko'pchilikni tashkil qiladi.



35- rasm. *Fitomiza imagos*

Fitomizani ommaviy uchib chiqishi uchib chiqish boshlanganidan 10-15 kun o'tib qayd etiladi. Tabiiy sharoitda fitomiza pashshasini eng kech uchib chiqishi noyabr oyining o'rtalarida qayd etiladi. Fitomiza g'umbabklari qishlash mavsumida havo nisbiy namligining oshishi kuzatilganda zamburug'li kasalliklar bilan kasallanishi kuzatiladi. Shu sababli etuk hasharotni uchib chiqish foizi keskin kamayib ketadi.

Fitomiza pashshasini populyasiyasida g'umbab qishlash davrida harorat juda past bo'lganda (-30 °C va undan past) ham normal qishlashi olimlar tomonidan qayd etilgan.



36 - rasm. *Tamaki maydonlaridagi gullagan shumg'iya poyalari*

Fitomiza pashshasini turli mintaqalarda avlod berishi
(S.G.Bronshteyn, 1971)

Mintaqalar	Avlod berishi
Astraxan (Rossiya)	2
Rostov (Rossiya)	3
Olmaota (Qozog'iston)	3-4
Osh (Qirg'iziston)	3-4
Samarqand (O'zbekiston)	5-6

Fitomiza populyasiyasi sonini boshqarishda parazit o'simlik shumg'iya muhim va aniqlovchi omil hisoblanadi.



37-rasm. Gullash davridagi shumg'iya (Tamakining Virjiniya navi).

Shumg'iaga qarshi biologik usulda kurash samaradorligini oshirish

Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida begona o'tlarga qarshi asosan introduksiya qilingan qisqa ixtisoslashgan fitofaglardan foydalaniladi, lekin ma'lum joylardagi aborigen begona o'tlarga qarshi mahalliy fitofaglarni ishlatalishi kuzatilmaydi.

Aborigen parazit – shumg'iaga qarshi ixtisoslashgan fitofag – fitomizani (*Phytomyza orobanchia Kalt.*) unga qarshi biologik usulda qo'llash juda kam joyda qo'llaniladi. Ushbu biologik usulni qo'llash to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar Samarqand davlat universiteti olimlari tomonidan 1970-yillarda olingen (Kabulov, 1969; Bronshteyn, 1967, 1969; Mukumov, 1967; Fayzieva, 1975).

Ekinlar agrobiotsenozida biotsenotik ahvol paydo bo'ladi, shu sababdan shumg'iya uchun ekin maydonlarida qulay sharoit yuzaga keladi. Bir qator agrotexnologik jarayonlar natijasida (xo'jayin o'simlik, ekin qalinligi, haydalishi va h.k.) shumg'iyaning urug'i xo'jayin o'simlik ildiz tizimi joylashgan chuqurlikda

joylashadi va ildizga yopishib, uning uchun oziqa manbai bilan ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida shumg'iyanı rivojlanishi va ko'payishiga qulay sharoit tug'diradi, sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida uning urug' mahsuldarligini ta'minlaydi, tuproqda juda ko'p miqdorda uning urug'i to'planadi.

Bu holat fitomiza pashshasi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi, qo'llanilgan agroteknologik jarayonlar ta'sirida diapauzada bo'lган fitomiza g'umbaklari sug'orish, tuproqni bir necha marta ishslash natijasida nobud bo'ladi. Kuzgi hosilni yig'ish va shudgor vaqtida qishlovchi zahiradagi g'umbaklarni ko'p qismi nobud bo'ladi. Bundan tashqari fitomiza pashshasining g'umbaklarini bir qismi butun o'simliklarni o'suv va qishlash davrida yirtqich hasharotlar va turli zamburug' kasalliklari natijasida nobud bo'ladi.

Umuman olganda, fitomiza pashshasining 4-8 % imagolari shumg'iyanı zararlaydi. Shunday qilib, pashshaning etuk zoti juda kam miqdordagi qishlovdan chiqqan g'umbaklardan hosil bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, sabzavot, poliz ekinlari va tamaki agroteknikasining asosiy tadbirlari – o'g'itlash, sug'orish, shudgor, qator oralarini ishslash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash va boshqalar parazit begona o't shumg'iyaning urug' mahsuldarligini oshiradi, shu bilan birga ushbu begona o'tning fitofagi bo'lган fitomiza pashshasining biologik rolini pasaytirib yuboradi.

Fitomizaning nazorat rolini oshirish, ya'ni shumg'iyaga qarshi fitomiza pashshasining biologik usul sifatida foydalanish va fitomizaning tabiiy zahirasini miqdoriy sonini hamda pashshaga salbiy ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish, shu bilan birga maydonlarni fitomiza bilan sun'iy ta'minlash muhim tadbir hisoblanadi.

Bizning tajribalarimizda sabzavot va tamaki ekilgan maydonlarni fitomiza bilan ta'minlash uchun fitomiza g'umbaklari joylashgan qog'oz xaltalarni maydonlarga joylashtirildi.Qo'yilgan tajribalarimizdan ma'lum bo'ldiki, fitomiza g'umbaklari qoplarini maydonlarga joylashtirish fitomizaning tabiiy zahirasini keskin oshirishga olib keldi.

Fitomiza pashshasining zahirasini tayyorlash uchun oktyabr oyidakuzgi shudgor boshlanmasdan oldin fitomiza pashshasi tuxum qo'ygan shumg'iya poyalari maydonlardan terib olindi va ular quritilib omborxonada qishlash uchun saqlanadi. Ularning saqlanishi muntazam kuzatib borildi.

Xaltalardagi shumg'iya poyalari qog'oz xaltalarga joylashtirilib, ular har bir gektar maydonga bittadan osib qo'yildi.



38- rasm. Tamaki dalalariga fitomiza tarqatish

Bu davrda shumg‘iyaning qurigan poyalari va urug‘ ko‘sakchalarisitomiza pushshasining diapauzadagi g‘umbaklari bilan to‘lgan bo‘ladi. Bunda kech gullagan shumg‘iada g‘umbakdan tashqari fitomizaning turliyoshdagи lichinkalari ham uchraydi, ular havo harorati pasayishi bilan dastlabki kuzgisovuq tushishi sababli nobud bo‘ladi.

Shu sababli sabzavot va tamaki maydonlaridagi o‘sib turgan shumg‘iya poyalarini ham terib olib uniquritib maydonlarida qo‘llanilganda tamaki maydonlaridagi parazit begona o‘t- shumg‘iyaning soni keskin kamayib ketganligi va tamaki hosildorligi 14-17 % ga oshganligi aniqlandi. Shu bilan birga shumg‘iya poyalarini qo‘lda terib chiqilishi hisobiga xarajatlar miqdorining kamayishi bu tadbirningiqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Shumg‘iyaga qarshi biologik usulning samaradorligini aniqlashda Samarqand viloyati Urgut tumanidagi “Obloqul Boymatov qo‘rg‘oni” va “Nasimboy Qurbonov euxovati” fermerxo‘jaliklarining tamakining Virjiniya navi ekilgan maydonlarida o‘tkazilgan tajribalar natijalaridan foydalanildi. Biologik usul samaradorligini aniqlashda fermer xo‘jaliklarida alohida maydonlar tanlab olindi va bu maydonlarga 2 yil mobaynida tamakining Virjiniya navi ekildi. Ushbu maydonlarda shumg‘iya begona o‘tining soni aniqlanib borildi. Shumg‘iya guli va urug‘ini fitomiza pashshasi bilan maksimal zararlanishi pashshanening yozgi va kuzgi generatsiyasiga (avlod) to‘g‘ri keladi. Bu vaqtga kelib tamaki maydonida shumg‘iya soni maksimal miqdorda puydo bo‘ladi. Hisoblarda aniqlanishicha, tamaki maydonida fitomiza pashshasini miqdoriy sonini maksimal darajada o‘sishi maydonlardagi zararlanganshumg‘iya ko‘sakchalarini keskin oshishiga olib keldi.

Biotsenotik holatni sxema shaklida qo‘yidagicha tasvirlash mumkin. Iyun oyida shumg‘iya poyasi va ildiz bo‘g‘zida pashsha g‘umbaklari sonini oshishi

kuzatildi. Ularni zahiraga olish tavsiya etiladi. Ulardan omborxona sharoitida lichinkalar rivojlanib, g'umbakka aylanadi.

Shu hisobiga ma'lum darajada qishlovchi fitomiza zahirasini oshirish mumkin. Fitomiza pashshasinifiziologik turlari bilan maydonlarni ishlash uchun tamaki maydonlarida yig'ilgan fitomiza pashshasini pomidor maydonlariga qo'yidik. Bu usulda fitomizani tarqatish uning g'umbaklarini entomofag, kasallik va mexanik shikastlanish natijasida nobud bo'lish darajasini kamaytiradi. Bundan tashqari, bu holat shumg'iyaning gullashi bilan sinxron ravishda qishlab chiqqan fitomiza pashshasining rivojlanishini ta'minlaydi.

Fitomiza pashshasini shumg'iyaning qarshi biologik usulda kurash vositasiga sifatida foydalanganda 1-2 yil mobaynida sabzavot va tamaki maydonlarida parazit begona o'tning miqdori keskinkamayib ketishi aniqlandi.



39- rasm. Fitomiza imagolarini qog'oz xaltalardan uchib chiqishi

Zararlangan ko'sakchalar ichidagi urug'lar bilan fitomiza oziqlanishi natijasida ular puch holatga kelib qolganligi kuzatildi. Shu sababli, fitomiza pashshasi zararlagan shumg'iya urug'lari puch bo'lib, unuvchanligini butunlay yo'qotadi.

Fitomizaning qishlovchi zahira g'umbaklari asosiy qismi ob-havo sharoitiga qarab sentyabr oyining oxirgi va oktyabr oyining boshida shakllanadi. Fitomiza bilan sun'iy ishlangan maydonlarda shumg'iya gulini zararlanish darajasi 90 % va undan ortiq bo'lganligi qayd etildi. Bunda bitta shumg'iya o'simligida o'nlab va yuzlab fitomiza g'umbagini ko'rishimiz mumkin.

Sabzavot va tamaki maydonlarini muntazam ravishda fitomiza pashshasi bilan ishslash o'z vaqtida va qulay ob-havo sharoitida o'tkazilganda, parazit begona o't-shumg'iyanidan butunlay xalos bo'lish imkoniyati mavjud. Bu esa o'z vaqtida, asosiy ekinlar hosildorligini va mahsulot sifatini oshishini ta'minlaydi.

Nazorat savollari.

1. *Shumg'iyaning xo'jayin-o'simlik ildizida rivojlanish bosqichlarini ayting.*

2. Shumg'yaning rivojlanishini xo'jayin-o'simlikga bog'liqligiga misollar kelting.
3. Shumg'iya sonini tuproq yuzasida va tuproqda tarqalishini aytin.
4. Shumg'iyan er ostida yashirin holatda rivojlanishi qanday kechadi.
5. Parazitini o'simlikni o'sishiga ta'sirini baholang.
6. Shumg'iya qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligiga ta'sirini ta'riflang.
7. Shumg'iyan xo'jayin-o'simlik biokimyoiy tarkibiga ta'sirini baholang.
8. Fitomiza pashshasini bioekologiyasi haqida tushuncha bering.
9. Shumg'iaga qarshi biologik kurashni asoslang.

Zarpechakning turlari va ekinlarga ixtisoslashuvi

Zarpechak (*Cuscuta L.*) turkumi vakillarining vatani Amerika va Afrika qit'alarining tropiklari hisoblanadi. Zarpechak Afrika qit'asi tropiklaridan shimal tomonga qarab janubiy Evropaga, sharqqa tomon Osiyo qit'asiga tarqalib, yangi sharoit va o'simliklarga moslashib borgan (Beylin, 1986).

Hozirda zarpechak turlari issiq iqlimli va yog'ingarchiligi me'yorida bo'lgan er kurrasining janubiy hududlarida yaxshi o'sib rivojlanmoqda.

Cuscuta turlari karantin ob'ektlar hisoblansa ham ularning areali tobora kengayib bormoqda.

Cuscuta turkumining vakillari daraxt va butalarda, bir yillik va ko'p yillik o'tsimon o'simliklarda parazitlik qilishi ko'pgina mualliflar tomonidan qayd etilgan (Ulenev, 1934; Arxangelskiy, 1951; Martirosov, 1952; Levishko, 1953; Мещеряков, 1954; Moiseev, 1958, Butkov, 1958). Bu ma'lumotlarda zarpechakning xo'jayin o'simliklari asosan turli oilalarga mansub gulli o'simliklar ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Adabiy manbalar bilan ishslash davomida O'zbekiston Respublikasi hududida *Cuscuta* turkumiga mansub turlarni tarqalishini o'rganish XX asrning 50-chi yillardan boshlab amalga oshirilganligini guvohi bo'ldik (20-jadval).

21-jadval

O'zbekiston hududida qayd etilgan zarpechak (*Cuscuta*) turkumining turlari.

	Cuscutaturkumining turlari	Ma'lumotlaridan foydalanilgan tadqiqotchilar				
		P.P.Arhangelskiy, 1951	A.YA. Butkov, 1958	Shu jumladan Toshkent viloyati bo'yicha	P.P.Arhangelskiy, 1951	A.YA.Butkov, 1958
1	<i>C.approximata</i> Bab.	+	+	+	+	+
2	<i>C.breviflora</i> Vis.	+	+	+	+	+

3	<i>C.babylonica</i> Audi	-	+	-	-	-
4	<i>C.bucharica</i> Palib	+	+	-	-	-
5	<i>C. breuistyla</i> A. Br.	-	+	-	+	-
6	<i>C.campestris</i> Vunck.	+	+	+	-	+
7	<i>C.chinensis</i> Lam.	+	+	+	+	+
8	<i>C.cupulata</i> Engelm	-	+	-	+	-
9	<i>C.epilinum</i> Weiche	+	+	-	+	+
10	<i>S.europaea</i> L.	-	-	-	-	-
11	<i>C.ferganensis</i> Bulk.	-	-	-	-	-
12	<i>C.lehmanniana</i> unge	+	+	+	+	+
13	<i>C. lupuliformes</i> var <i>asiatica</i> Engelm.J.	-	+	-	+	-
14	<i>C.monogyna</i> Vahl.	+	+	+	+	+
15	<i>C.pedicellate</i> Lab.	-	+	-	-	-
16	<i>C.pellucida</i> Bulk.	-	+	-	-	-
17	<i>C.stenocatycina</i> Palib.	-	+	-	-	-
	Jami	8	17	7	10	7

21-jadvaldag'i ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki parazitlik qilishga qarab aniqlangan *C.lehmanniana*, *C. breviflora*, *C.monogyna*, *C.campestris*, *C.epilinum*, *C.chinensis* turlari polifag va *C.approximata* turi monofag bo'lib, faqat bedani paraziti ekanligi ma'lum bo'ldi.

P.P. Arxangelskiy (1951) tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida yovvoyi va madaniy o'simliklarda zarpechakning 8 turi, shu jumladan, Toshkent viloyatida 7 turi aniqlanganligi ko'rsatib o'tilgan.

A.Ya.Butkov (1959) amalga oshirgan tadqiqotlar natijasida bu hududda yovvoyi va madaniy o'simliklarda zarpechakning 17 turi, shu jumladan, Toshkent viloyatida 10 turi kuzatilganligi ta'kidlangan.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz zarpechakni faqat madaniy o'simliklarda tarqalishini o'rganishga qaratilganligi sababli biz tadqiqot o'tkazgan Toshkent viloyatining dala va sabzavot ekinlari, mevali vamanzarali daraxt hamda butalar bilan band bo'lgan maydonlarida va Toshkent Davlat agrar universitetining o'quv tajriba stansiyasidagi ekin dalalarida *Cuscuta* turkumiga mansub 7ta turga tegishli zarpechakni aniqladik.

Toshkent viloyati hududida parazitlik qiladigan zarpechaklar orasida qishloq xo'jalik ekinlari va manzarali o'simliklarda eng ko'p tarqalgan turlari *C.lehmanniana* (52 ta turda) va *C. breviflora*(50 ta turda) ekanligi kuzatildi. Eng kam tarqalgani *C.approximata* (1 ta turda) va *C.chinensis* (7 ta turda) turlari ekan. *C.epilinum* – 9 ta. *C.campestris* – 12 ta va *C.monogyna* – turlari esa 33 ta o'simlik turida aniqlandi (22-jadval).

**Qishloq xo'jalik ekinlari va manzarali o'simliklarda parazitlik qiladigan
zarpechak (*Cuscuta*) turlari.**

№	Qishloq xo'jalik ekinlari va manzarali o'simliklar turi	Zarpechak turlari			
		<i>C. approximata</i>	<i>C. reviflora</i>	<i>C. campestris</i>	<i>C. chinensis</i>
1	Anjir <i>Ficus carica L.</i>	-	-	-	-
2	Anor <i>Punica granatum L.</i>	-	-	-	-
3	Arpa <i>Hordeum spp. cult.</i>	-	+	-	-
4	Astra <i>Callistephus chinensis L.</i>	-	-	-	-
5	Atirgul <i>Rosa damacena Mill.</i>	-	+	-	-
6	Baqlajon <i>Solanum melongena L.</i>	-	+	-	-
7	Begoniya <i>Begonia L.</i>	-	+	-	-
8	Beda <i>Medicago sativa L.</i>	+	+	+	+
9	Behi <i>Cydonia oblonge Mill.</i>	-	-	-	-
10	Bodom <i>Amygdalus communis L.</i>	-	-	-	-
11	Bodring <i>Cucumis sativis L.</i>	-	-	-	-
12	Bug'doy <i>Triticumaestivum L.</i>	-	+	-	-
13	Vika <i>Vicia sativa L.</i>	-	-	+	-
14	Gilos <i>Cerasus avium Moench.</i>	-	-	-	-
15	Gledichiya <i>Gleditschia triacanthos L.</i>	-	+	-	-
16	Eryong'oq <i>Arachis hypogaea L.</i>	-	+	-	-
17	Yong'oq <i>Juglans regia L.</i>	-	-	-	-

18	Yosuman <i>Jasminum L.</i>	-	-	-	-
19	Zarang <i>Acer L.</i>	-	+	-	-
20	Zig‘ir <i>Linum usitatissimum L.</i>	-	+	-	-
21	Kanop <i>Hibiscus cannabinus L.</i>	-	-	+	+
22	Karam <i>Brassica oleracea L.</i>	-	+	-	-
23	Kartoshka <i>Solanum tuberosum L.</i>	-	+	+	-
24	Kartoshkagul <i>Dahlia Cav.</i>	-	+	-	-
25	Krijovnik <i>Grossularia racinata Mill.</i>	-	-	-	-
26	Kungaboqar <i>Helianthus annuus -L.</i>	-	+	-	-
27	Lavlagi <i>Beta vulgaris L.</i>	-	+	-	+
28	Limon <i>Citrus medica L.</i>	-	+	-	-
29	Loviya <i>Glycine hispida Max.</i>	-	-	-	-
30	Maymunjon <i>Rubus caesius L.</i>	-	+	-	-
31	Makkajo‘xori <i>Zea mays L.</i>	-	-	-	-
32	Maxsar <i>Carthamus tinctorius L.</i>	-	-	-	-
33	Moychechak <i>Matricaria lammellata Bge.</i>			-	-
34	Mosh <i>Phaseolus aurens Roxb.</i>	-	-	-	-
35	Namatak <i>Rosa centifolia L.</i>	-	+	-	-
36	Nok <i>Pyrus communis L.</i>	-	+	-	-
37	No‘xot <i>Cicer</i>	-	-	-	-

	<i>arietinum L.</i>				
18	<i>Olma Malus domestrica Borkh.</i>	-	+	-	-
19	<i>Olxo'ri Prunus domestica L.</i>	-	-	-	-
20	<i>Olcha Cerasus vulgaris Mill.</i>	-	-	-	-
21	<i>Oq akatsiya Robinia pseudacacia L.</i>	-	-	-	-
22	<i>Tamaki Nicotina tabacum L.</i>	-	-	-	-
23	<i>Tarvuz Citrullus vulgaris Schrad.</i>	-	+	-	-
24	<i>Iariq Panicum miliaceum L.</i>	-	+	-	-
25	<i>Terak Populus L.</i>	-	-	-	-
26	<i>Tirnoqqul Calendula officinalis L.</i>	-	-	-	-
27	<i>Tok Vitis vinifera L.</i>	-	-	-	-
28	<i>Tol Salix L.</i>	-	-	-	-
29	<i>Log'olcha Prunus cerasifera Ehrh.</i>	-	-	-	-
30	<i>Turp Raphanus sativus L. var. niger Pers.</i>	-	+	-	-
31	<i>Tut Morus alba L.</i>	-	+	-	-
32	<i>Petrushka Petroselinum sativum Hoffm.</i>	-	+	-	-
33	<i>Priyoz Allium cepa L.</i>	-	+	-	-
34	<i>Pista Amygdalus communis</i>	-	-	-	-
35	<i>Pomidor Lycopersicum esculentum Mill.</i>	-	+	-	+
36	<i>Rediska Raphanus sativus L. var redicula Pers.</i>	-	+	-	-
37	<i>Rus no'xoti Pisum sativum L.</i>	-	+	+	-

58	Sabzi <i>Daucus carota L.</i>	-	+	+	-
59	Siren <i>Syringa L.</i>	-	-	-	-
60	Soya <i>Glycine soja Sieb. et Zucc.</i>	-	-	-	-
61	Xo‘jag‘at <i>Rubus caesius L.</i>	-	-	-	-
62	CHinor <i>Platanus orientalis L.</i>	-	-	-	-
63	Shaftoli <i>Persia vulgaris Mill.</i>	-	+	-	-
64	Shovul <i>Rumex acetosa L.</i>	-	+	-	-
65	Sholg‘om <i>Brassica rapa L. rapifera Metzg.</i>	-	-	-	-
66	Shumtol <i>Fraxinus L.</i>	-	-	-	-
67	Ukrop <i>Anethum graveolens L.</i>	-	-	-	-
68	Yasmiq <i>Lens culinaris Med.</i>	-	-	+	-
69	O‘rik <i>Armenica vulgaris Lam.</i>	-	+	-	-
70	Qayrag‘och <i>Ulmus L.</i>	-	+	-	-
71	Qalampir <i>Capsicum annum L.</i>	-	+	-	-
72	Qorag‘at <i>Ribes nigrum L.</i>	-	-	-	-
73	Qovoq <i>Cucurbita pepo L.</i>	-	+	+	-
74	Qovun <i>Cucumis melo L.</i>	-	+	-	+
75	G‘o‘za <i>Gossypium hirsutum L.</i>	-	+	-	+
	Jami:	1	50	12	7

**Qishloq xo‘jalik ekinlari va manzarali o‘simliklarda parazitlik qiladigan
zarpechak (*Cuscuta*) turlari.**

№	Qishloq xo‘jalik ekinlari va manzarali o‘simliklar turi	Zarpechak turlari		
		<i>C. epilinum</i>	<i>C. lehmanniana</i>	<i>C. monogyna</i>
1	Anjir <i>Ficus carica L.</i>	-	+	-
2	Anor <i>Punica granatum L.</i>	-	+	-
3	Arpa <i>Hordeum spp.cult.</i>	-	+	-
4	Astra <i>Callistephus chinensis L.</i>	-	+	-
5	Atirgul <i>Rosa damacena Mill.</i>	-	+	+
6	Baqlajon <i>Solanum melongena L.</i>	-	+	-
7	Begoniya <i>Begonia L.</i>	-	-	-
8	Beda <i>Medicago sativa L.</i>	+		+
9	Behi <i>Cydonia oblonge Mill.</i>	-	+	+
10	Bodom <i>Amygdalus communis L.</i>	-	+	-
11	Bodring <i>Cucumis sativis L.</i>	-	-	-
12	Bug‘doy <i>Triticumaestivum L.</i>	-	+	-
13	Vika <i>Vicia sativa L.</i>	+	-	+
14	Gilos <i>Cerasus avium Moench.</i>	-	+	-
15	Gledichiya <i>Gleditschia triacanthos L.</i>	-	+	
16	Eryong‘oq <i>Arachis hypogaea L.</i>	-	-	-
17	Yong‘oq <i>Juglans regia L.</i>	-	+	-
18	Yosuman <i>Jasminum L.</i>	-	+	-
19	Zarang <i>Acer L.</i>	-	+	+
20	Zig‘ir <i>Linum usitatissimum L.</i>	-	+	-
21	Kanop <i>Hibiscus cannabinus L.</i>	-	+	-
22	Karam <i>Brassica oleracea L.</i>	-	+	-
23	Kartoshka <i>Solanum tuberosum L.</i>	-	+	-
24	Kartoshkagul <i>Dahlia Cav.</i>	-	-	-
25	Krijovnik <i>Grossularia raclinata Mill.</i>	-	-	+
26	Kungaboqar <i>Helianthus annuus L.</i>	-	+	
27	Lavlagi <i>Beta vulgaris L.</i>	+	+	+
28	Limon <i>Citrus medica L.</i>	-	-	-

29	Loviya <i>Glycine hispida Max.</i>	+	-	-
30	Maymunjon <i>Rubus caesius L.</i>	-	-	+
31	Makkajo'xori <i>Zea mays L.</i>	-	-	+
32	Maxsar <i>Carthamus tinctorius L.</i>	-	+	-
33	Moychechak <i>Matricaria lammellata Bge.</i>	-	-	-
34	Mosh <i>Phaseolus aureus Roxb.</i>	+	-	-
35	Namatak <i>Rosa centifolia L.</i>	-	+	+
36	Nok <i>Pyrus communis L.</i>	-	-	+
37	No'xot <i>Cicer arietinum L.</i>	+	-	-
38	Olma <i>Malus domestrica Borkh.</i>	-	+	-
39	Olxor'i <i>Prunus domestica L.</i>	-	+	+
40	Olcha <i>Cerasus vulgaris Mill.</i>	-	+	+
41	Oq akatsiya <i>Robinia pseudacacia L.</i>	-	+	+
42	Tamaki <i>Nicotina tabacum L.</i>	-	-	-
43	Tarvuz <i>Citrullus vulgaris Schrad.</i>	-	-	-
44	Tariq <i>Panicum miliaceum L.</i>	-	+	-
45	Terak <i>Populus L.</i>	-	+	+
46	Tirnoqgul <i>Calendula officinalis L.</i>	-	-	-
47	Tok <i>Vitis vinifera L.</i>	-	+	+
48	Tol <i>Salix L.</i>	-	+	+
49	Tog'olcha <i>Prunus cerasifera Ehrh.</i>	-	+	+
50	Turp <i>Raphanus sativus L.</i> var. <i>niger Pers.</i>	-	+	-
51	Tut <i>Morus alba L.</i>	-	+	-
52	Petrushka <i>Petroselimum sativum Hoffm.</i>	-	-	-
53	Piyoz <i>Allium cepa L.</i>	-	+	+
54	Pista <i>Amygdalus communis</i>	-	+	-
55	Pomidor <i>Lycopersicum esculentum Mill.</i>	-	+	-
56	Rediska <i>Raphanus sativus L. var redicula Pers.</i>	-	+	-
57	Rus no'xoti <i>Pisum sativum L.</i>	+	-	-

58	Sabzi <i>Daucus carota L.</i>	-	-	-
59	Siren <i>Syringa L.</i>	-	-	-
60	Soya <i>Glycine soja Sieb. et Zucc.</i>	+	-	-
61	Xo'jag'at <i>Rubus caesius L.</i>	-	-	-
62	Chinor <i>Platanus orientalis L.</i>	-	-	-
63	Shaftoli <i>Persia vulgaris Mill.</i>	-	-	-
64	Shovul <i>Rumex acetosa L.</i>	-	-	-
65	Sholg'om <i>Brassica rapa L.</i> <i>rapifera Metzg.</i>	-	-	-
66	Shumtol <i>Fraxinus L.</i>	-	-	-
67	Ukrop <i>Anethum graveolens L.</i>	-	-	-
68	Yasmiq <i>Lens culinaris Med.</i>	+	-	-
69	O'rik <i>Armenica vulgaris Lam.</i>	-	-	-
70	Qayrag'och <i>Ulmus L.</i>	-	-	-
71	Qalampir <i>Capsicum annum L.</i>	-	-	-
72	Qorag'at <i>Ribes nigrum L.</i>	-	-	-
73	Qovoq <i>Cucurbita pepo L.</i>	-	-	-
74	Qovun <i>Cucumis melo L.</i>	-	-	-
75	G'o'za <i>Gossypium hirsutum L.</i>	-	-	-
	Jami:	9	52	33

Toshkent viloyati hududida aniqlangan *Cuscuta* turlarinixo'jayin o'simliklarga ixtisoslashuvini tahlil qilinganda *C.lehmanniana* turi parazitlik qiladigan o'simliklarning 59,6 % daraxt va butalar bo'lsa, 40,4 % o'tsimon madaniy o'simliklar va bir yillik ekinlar bo'lishi ma'lum bo'ldi (23-jadval, 40-rasm). *C.breviflora* turida esa bu ko'rsatkich 32,0 % va 68,0 % ga teng bo'ldi. *C.monogyna* turida 75,8 % va 24,2 % ni, *C.campestris* turida 16,7 % va 83,3 % ni tashkil etdi. *C.epilinum* va *C.chinensis* turlari faqat o'tsimon madaniy o'simlik va bir yillik ekinlarda (100 %) parazitlik qilishi aniqlandi.

Cuscuta turlarini qishloq xo'jalik ekinlari va manzarali o'simliklari orasida taqsimlanishi esa 2-rasmda keltirilgan. 2-rasmda ifodalanganidek aniqlangan zarpechak turlarining 24 % daraxt va butalarning, 30,6 % o'tsimon madaniy o'simliklar va bir yillik ekinlarning, 45,4 % har ikki guruh o'simliklarning paraziti ekan.

23-jadval

Zarpechak (*Cuscuta*) turlarini xo'jayin o'simliklarga ixtisoslashuvi

№	<i>Cuscutaturlari</i>	Qishloq xo'jalik ekinlari va manzaralni o'simliklar			
		O'simlik turlarining umumiyl soni, dona	Daraxt va butalar		O'tsimon madaniy o'simliklar va bir yillik ekinlar
		O'simlik turlari soni, dona	% hiso- bida	O'simlik turlari soni, dona	% hiso- bida
1	<i>C.approximata</i>	1	-	-	1 100
2	<i>C.breviflora</i>	50	16	32,0	34 68,0
3	<i>C.campestris</i>	12	1	16,7	11 83,3
4	<i>C.chinensis</i>	7	-	-	7 100
5	<i>C.epilinum</i>	9	-	-	9 100
6	<i>C.lehmanniana</i>	52	31	59,6	21 40,4
7	<i>C.monogyna</i>	33	25	75,8	8 24,2
	Jami	164	73	44,5	91 55,5

40-rasm. Zarpechak (*Cuscuta*) turlarini qishloq xo'jalik ekinlari va manzaralni o'simliklarga ixtisoslashuvi

Zarpechakning Toshkent viloyati hududidagi qishloq xo'jalik ekinlari va manzaralio'simliklarda aniqlagan turlarimizni adabiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar bilan solishtirdik. *C.lehmannianaBunge* turi MarkaziyOsiyo va Quzog'iston, Rossianing Oltoy o'lkasi, Eron, Afg'oniston va Ozarbayjonda keng tarqalgan bo'lib, Markaziy Osiyo uchun endemik tur hisoblanadi (Arxangelskiy,1951). Bu tur Sirdaryodan tortib Olmaotagacha, Xorazm, Buxoro va Turkmanistonda keng tarqalgan bo'lib, 218 ta xo'jayin o'simlikda parazitlik qilishi qayd etilgan (Beylin, 1967). Zarpechaklar orasida eng ko'p zarar keltiradigan turi hisoblanadi.Tok, tol va tutda ko'plab parazitlik qilib, ularni qurishiga sababchi bo'ladi.

Cuscuta monogyna Vahl. turi

Rossianing Stavropol o'lkasida. O'rta va Quyi Povoljeda, Kavkazda, Moldaviyada, Ukraina, Qrim, MarkaziyOsiyoda, O'rta er dengizi atrofidagi davlatlarda, Bolqon yarim orolida, Malayziyada, Eronda, Afg'onistonda, Xitoyda, Mongoliyada mevali daraxt va butalarda bir yillik hamda manzarali va yovvoyi o'simliklarda parazitlik qilishi aniqlangan (Mescheryakov, 1954).

O'zbekistonda esa Samarqand va Toshkent viloyatlarda kuzatilgan (Arxangelskiy,1951).

Cuscuta appoximata Bab. turi

Qrimda, Kavkazda, Markaziy Osiyo va O'zbekistonda bedada parazitlik qilishi kuzatilgan (Arxangelskiy,1951). Bundan tashqari sebarangda, no'xatda va yovvoyi o'simliklarda aniqlangan (Beylin, 1967). Angliya, Fransiya, Germaniya, Shveysariya, Italiya, Ispaniya, Turkiya, Osiyo, Eron, Afg'oniston, Misr, Xitoy, Hindiston, AQSh da tarqalgaligi qayd etilgan (Mescheryakov,1954).

Cuscuta campestris Vunck. turi

Shimoliy Amerikadan Evropagakeltirilgan. Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Shimoliy Kavkaz,Markaziy Osiyoda dala va sabzavot ekinlarda aniqlangan (Mescherakov,1954). O'zbekistonda ham qishloq xo'jalik ekinlari, manzarali va yovvoyi o'simliklarda parazitlik qilishi kuzatilgan (Arxangelskiy,1951).

Cuscuta chinensis Lam.turi

O'zbekiston hududida birinchi marta 1947 yil Toshkent viloyatining Quyi CHirchiq tumanida, kanopda parazitlik qilishi aniqlangan (Arxangelskiy,1951). Keyinchalik Toshkent viloyatining Yuqori CHirchiq, Oqqa'rg'on tumanlarida, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarda, Qoraqalpog'iston, Tojikiston respublikasida bir yillik ekinlarda va yovvoyio'simliklarda topilgan. Qirg'izistonda ham keng tarqalgaligi qayd etilgan (Moiseev, 1958).


Cuscuta breviflora Vis. turi

Evropa, Osiyo, Avstraliya, Rossiyaning G'arbiy Sibirida, Kavkazda, UzoqSharqda, Markaziy Osiyoda qishloqxo'jalik ekinlari va yovvoyi o'simliklarda keng tarqalgan (Butkov, 1959). Qirg'izistonda ham keng tarqalganligi qayd etilgan (Moiseev, 1958). O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlarida uchraydi (Arxangelskiy, 1951).

Cuscuta epilinum Weihe turi

Zig'ir etishtiriladigan maydonlarda - Rossiyaning Altay o'lkasidan tortib Leningrad viloyatigacha tarqalishi qayd etilgan (Beylin, 1986). Shubilan birga pomidor, no'xat va bug'doyda aniqlangan. O'zbekistonda zig'irda parazitlik qilishi kuzatilgan (Arxangelskiy, 1951).

Toshkent viloyati hududida qishloq xo'jalik ekinlari va manzaralni o'simliklarda tarqalgan zarpechak turlarini uchrashi va tadqiqotlarimiz natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish shuniko'rsatdiki, madaniy o'simliklarda zarpechakning tarqalish areali hozirda ham qisqarmaganligi ma'lum bo'ldi.



41-rasm. Qishloq xo'jalik ekinlari va manzaralni xo'jayin o'simliklari orasida *Cuscuta* turlarini taqsimlanishi: 1 - daraxt va butalarda; 2 - o'tsimon madaniy o'simliklar va bir yillik ekinlarda; 3 - har ikki guruh o'simliklarida parazitlik qiluvchi turlar.

**Zarpechakning qishloq xo‘jalik ekinlari va manzarali
o‘simliklarda tarqalgan turlari
(Cuscutaceae Dumort. oilasi, *Cuscuta L. turkumi*)
Cuscuta campestris Vunek.**

Poyasi ingichka, ipsimon, sarg‘ish, ayrim hollarda qizg‘ish. Gullari oq yoki yashil oqish bo‘lib, gul bandlari kalta 3-8 tasi birlashib diametri 1,5 sm tupgulni hosilqiladi. Gultojlari 2-2,5 mm uzunlikda, qo‘ng‘iroqsimon, kosachaga nisbatan uzun, kosachasining uzunligi 1,5-2 mm, yarim sharsimon. Tugunchasi va ko‘sakcha yassisharsimon. Ko‘sakchasi och jigar rang. Urug‘i och jigar rang yoki qo‘ng‘ir, uzunligi 1,25-2,5 mm, eni 1-1,5 mm (3.3-rasm).

Oq akatsiya - *Robinia pseudacacia L.*, kartoshka - *Solanumtuberosum L.*, kanop - *Hibiscus cannabinus L.*, beda - *Medicago sativa L.*, lavlagi - *Beta vulgaris L.*, tarvuz - *Citrullus vulgaris Schrad.*, rus no‘xoti - *Pisum sativumL.*, sabzi - *Daucus carota L.*, qovoq - *Cucurbita pepo L.*, soya - *Glycine soja Sieb.et Zucc.*, krijoyvnik - *Grossularia raclinata Mill.* va makkajo‘xori - *Zea mays L.* larda parazitlik qiladi.

***Cuscuta epilinum* Weishe**

Poyasi o‘rtacha yo‘g‘onlikda, kam shoxlangan. Gullari och sarg‘ish rangli bo‘lib, zikh va yumaloq to‘pgullarni hosil qiladi. Urug‘lar ko‘pincha qo‘shaloq bo‘lib, o‘zaro qo‘shilib ketgan, yumaloq. YAkka urug‘lari 0,96-1,2 mmkattalikda. Po‘sti notekis yashil, ayrim hollarda qo‘ng‘irrangli bo‘ladi.

Ko‘sakchasi yapaloq-sharsimon, tugunchaning ustunchalari orasida botiq yoriqlari bor (3.4-rasm).

Beda- *Medicago sativa L.*, lavlagi -*Beta vulgaris L.*, no‘xat - *Cicer arietinum L.*, loviya - *Glycine hispide Max.*, mosh - *Phaseolus aurens Roxb.*, rus no‘xoti - *Pisum sativumL.*, soya - *Glycine soja Sieb.et Zucc.*, vika - *Vicia sativa L.* va yasmiq - *Lens culinaris Med.* larda aniqlandi.

***Cuscuta chinensis* Lam.**

Poyasi ingichka, sarg‘imtir-qizg‘ish. Gullari oq yoki och sarg‘ish rangli, 3-4 tasi birlashib soyabonsimon, g‘ovak 4 mm uzunlikdagi to‘pgullarni hosil qiladi. Ular gulbandlarining uzunligi 2-3 mm. Gulkosachasi 2-2,5 mm uzunlikda. Gultoji barglariburchakli bo‘lib, bir-biridan ajralgan, bir oz gulkosachalardan chiqib turadi. CHangchisi gultojisidan kaltaroq bo‘lib, uchki qismi yuraksimon, sarg‘ish changchilariga ega. Gultugunchasi sharsimon, ikki ustunchali, bu ustunchalar gultugunchalardan balandroq. Ko‘sakchasi qisiq-sharsimon, 3 mm diametrli, botiq yoriqlarga ega, 2-4 tadan urug‘i bor.

Urug‘iyumaloq yoki bir oz cho‘ziqroq, och yoki to‘q jigar rangda, sirti notekis.

Kartoshka - *Solanumtuberosum L.*, kanop - *Hibiscus cannabinus L.*, beda - *Medicago sativa L.*, pomidor - *Lycopersicum esculentum Mill.*, lavlagi - *Beta vulgaris L.*, g‘o‘za - *Gossypium hirsutum L.* va qovun - *Cucumis melo L.* ekinlarda topildi.

rapa L. rapifera Metzg., maxsar - *Carthamus tinctorius L.*, lavlagi - *Beta vulgaris L.*, ukrop - *Anethum graveolens L.*, g'oz'a - *Gossypium hirsutum L.*, arpa - *Hordeum spp.cult.* larda parazitlik qilishi aniqlandi.

Zarpechak urug'lari yetilish darajasi vaunib chiqishi

Parazitlik qiladigan gulli o'simliklarning unishi o'ziga xos hususiyatga ega. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, ularning urug'larini unishi xo'jayin o'simliklarsiz yoki ular ajratadigan maxsus moddalarsiz amalga oshmaydi (Machatve, 2002).

Bu parazitlarning urug'lari ma'lum tinim davrini o'tagandan so'ng, ya'ni bu davr 4-5 yil, ayrim ma'lumotlarga ko'ra 20 yilgacha davom etgandan so'ng unib chiqish hususiyatiga ega (Tarr, 1975; Nikolaeva va boshqalar, 1982, 1985; Beylin, 1986; Haidar, 1999).

Parazit gulli o'simliklarning bunday hususiyatlari, ularni saqlanib qolishi uchun moslashuvi hisoblanadi va ekin dalalarini ulardan tozalashda qo'shimcha qiyinchiliklarni yaratadi. Shu sababli gulli parazit o'simliklarning urug'larini tinim davrining tabiatini va bu holatni engish yo'llarini bilish, ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega (Nikolaeva, Obrucheva, 1982; Nikolaeva va boshqalar, 1985). Urug'larni unishini to'xtatib turuvchi omillar turlichadir. Tabiiyki bu omillarni o'zgartiruvchi sharoitlar ham turlichadir.

Foshkent viloyati hududida qishloq xo'jalik ekinlari va manzarali o'simliklarda aniqlangan zarpechak turlarining urug'larini tinim davriga ta'sir qiluvchi omillarni o'rGANISH maqsadida tadqiqot ishlarini amalga oshirdik.

Adabiy manbalarda zarpechak urug'ini juda past unuvchanlikka ega ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin (Arxangelskiy, 1951; Melnikova, 1954; Meuieryakov, 1954; Leusova, 2006).

Ko'pincha bu holatni urug' po'stini zikh va qattiq bo'lishiga bog'lanadi. Lekin zarpechak urug'ini unishi uning etilishiga, saqlash sharoitiga va ularni yig'ish muddatiga bog'liqligini e'tibordanchetda qoldirmaslik kerak.

Leman (*Cuscuta lehmanniana*) va bir ustunli (*Cuscuta monogyna*) zarpechaklarning kuzda yig'ilgan, etilgan urug'larining unishi 15 % va 10 % bo'ldi (6-jadval). Iyul oyining oxirida yig'ilgan qo'ng'ir tusdag'i etilmagan urug'larning unishi 36 % va 39 % ni, yashil etilmagan urug'larning unishi esa 92 % va 95 % ni tashkil etdi.

Dala zarpechagini (*Cuscuta campestris*) avgust, sentyabr va oktyabr oylarida yig'ilgan urug'larni unib chiqishi juda past bo'lib, 5 %, 7 va 10 % ko'rsatkichni namoyon qildi (7-jadval). Past harorat ta'sirida noyabr oyida yig'ilgan urug'larning unishi 40 % va 47 % ga etdi.

Qalampir (*Cuscutabreviflora*) zarpechagini yashil urug'larini unishi 5 % ni, yarim etilganlariniki 33 % va 48 % ni hamda etilganlariniki esa 2 % ni tashkil etdi.

Tajribamizda xitoy zarpechagini (*Cuscuta chinensis*) yashil urug'larini unishi 92 % ga, yarim etilganlarni unishi 60 % ga teng bo'lsa, etilgan qattiq urug'lar umuman unib chiqmadi.Bu holat dala, qalampir va xitoy zarpechaklarining urug'lari dala sharoitida etilgani ham va etilmagani ham infeksiya manbai sifatida katta xavf tug'dirishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, etilmagan urug'larning unuvchanligi etilgan urug'larga nisbatan yuqori bo'lishi ko'pgina zarpechak turlarining urug'lariga xos hususiyatdir. Lekin beda zarpechagida (*Cuscuta approximata*) bunday hususiyat kuzatilmadi, ya ni etilgan va etilmagan urug'larning unuvchanligi past bo'ldi. Tajribamizda yangi yig'ilgan beda zarpechagi urug'lari eng kam unuvchanlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Beda zarpechaginiq etilmagan urug'larning unuvchanligi 7 % bo'lsa, etilganlariniki 3 % ga teng bo'ldi (24-jadval). Nam sharoit va past haroratda turgan urug'larning unuvchanligi oshdi va bahorda bu ko'rsatkich eng yuqori bo'lib 63 % ga etdi.

24-jadval

Zarpechak urug'larining etilish darajasi hamda yig'ish muddatlarini ularning unishiga ta'siri

№	Zarpechak turlari	Undirish-ga qo'yilgan urug'lar soni, dona	Zarpecha k urug'lari yig'ilgan sana	Urug'lar undirishga qo'yilgan sana	Urug'lar unishi boshlan-gankun	Kuzatis h muddati kun hisobida	Unib chiqqan urug'lar		CHirigan Urug'lar		Unmagan urug'lar	
							dona	%	dona	%	dona	%
1	<i>C.lehmanniana</i>	200	20.07.04	21.07.04	24.07.04	30	184	92	12	6	4	2
		200	30.07.04	31.07.04	5.08.04	30	72	36	118	59	10	5
		200	20.11.04	20.11.04	26.11.04	30	30	-	170	85	-	-
2	<i>C.monogyna</i>	200	20.07.04	21.07.04	23.07.04	30	95	47,5	4	2	101	50,5
		200	10.08.04	11.08.04	15.08.04	30	39	19,5	112	56	49	24,5
		200	15.11.04	16.11.04	22.11.04	30	10	5,0	178	89	12	6,0
HCP ₀₅ = 1.57												

25-jadval

Zarpechakurug'larining etilish darajasi hamda yig'ish muddatlarini ularning unishiga ta'siri

№	Zarpechak turlari	Undirish-ga qo'yilgan urug'lar soni, dona	Zarpecha k urug'lari yig'ilgan sana	Urug'lar undirishga qo'yilgan sana	Urug'lar unishi boshlan-gan kun	Kuzatish muddati, kun hisobida	Unib chiqqan urug'lar		CHirigan urug'lar		Unmagan urug'lar	
							dona	%	dona	%	dona	%
1	<i>C. campestris</i>	200	20.08.04	21.08.04	26.08.04	30	10	5	-	-	190	95
		200	10.09.04	30.09.04	5.10.04	30	14	7	-	-	186	93
		200	10.10.04	12.10.04	18.10.04	30	20	10	-	-	180	90
		200	20.11.04	21.11.04	24.11.04	30	80	40	18	9	102	51
		200	20.02.05	21.02.05	24.02.04	30	160	80	20	10	20	10
2	<i>C.breviflora</i>	200	30.08.04	31.08.04	2.09.04	30	10	5	64	32	126	63
		200	20.09.04	21.09.04	25.09.04	30	66	33	50	25	84	42
		200	10.10.04	11.10.04	14.10.04	30	96	48	36	18	68	34
		200	25.11.04	28.11.04	3.12.04	30	4	2	22	11	174	87
3	<i>C..chinensis</i>	200	10.08.04	11.08.04	13.08.04	30	184	92	6	3	10	5
		200	15.09.04	16.09.04	19.09.04	30	120	60	30	15	50	25
		200	20.11.04	21.11.04	-	30	-	-	14	7	186	93
HCP ₀₅ = 1.17												

Fabiyy holatda stratifikatsiyalangan, ya’ni bahorda yig‘ilgan beda zarpechagi urug‘lari tez, 3 kundan una boshladi va 10 kun davomida ularning asosiy qismi unib chiqdi. Avgust va sentyabr oylarida yig‘ilgan urug‘larni unishi esa faqat 7-11-kunlardan boshlandi.

Zig‘ir zarpechagini etilmagan urug‘lari 2- kundan boshlab unib chiga boshladi va 75 % unuvchanlikni namoyon qildi. Yetilgan urug‘lar 3-kundan boshlab unib chiga boshladi va 82 – 91 % unuvchanlikka ega bo‘ldi.

Stratifikatsiya qilinmagan beda va zig‘ir zarpechaklari urug‘larining unish muddati cho‘zildi, eng qulay sharoitda ham urug‘larning hammasi unib chiqmadi. Ularning qolgan qismi hayotchan bo‘lishiga qaramay (29-40 % va 5-19 %) unib chiqmadi.

Urug‘larni unib chiqish muddatlarini cho‘zilishi zarpechak turlarining eng muhim hususiyatlaridan biridir. Zarpechak urug‘larini unishi uchun eng qulay sharoit yaratilganda ham ular to‘laligicha unib chiqmaydi. Unib chiqmagan urug‘lar o‘z hayotchanligini uzoq muddat saqlab qoladi va qulay sharoit vujudga kelganida ular unib chiqishlari mumkin. Shu sababli zarpechakka qarshi kurash choralarini amalga oshirishda ularning bu hususiyatlarini hisobga olish juda muhim ahamiyatga ega.

Zarpechukurog'larining stilish darajasi hamda yig'ish muddatlarini ularoling o'mshiga ta'siri.

№	Zarpechukurog'larini Undirish-	Urug'lar	Urug'lar	Kuzatish	Unib		Ch'rigan		Umragan		
					muddati,	chiqqan	urug'lar	dona	%	dona	%
1	<i>C. approximata</i>	200	23.08.05	24.08.05	40	14	7	-	-	186	93
		200	28.09.05	29.09.05	40	6	3	30	15	164	82
		200	10.10.05	11.10.05	40	64	32	32	16	104	52
		200	7.11.05	8.11.05	40	70	35	20	10	110	55
		200	9.12.05	10.12.05	40	104	52	16	8	80	40
		200	3.03.06	4.03.06	40	126	63	16	8	48	29
2	<i>C. cepulinum</i>	200	20.08.05	21.08.05	40	150	75	12	6	38	19
		200	15.09.05	16.09.05	40	164	82	6	3	30	15
		200	25.11.05	26.11.05	40	182	91	8	4	10	5

HCP₁₀ = 1.03

Zarpechak urug‘larini unishiga saqlanish sharoiti va havo haroratini ta’siri

Zarpechak urug‘laineri unib chiqishiga ularni saqlanib qolgan joyining ta’siri juda katta ekanligini olibborgan tadqiqotlarimiz ko‘rsatib berdi.

Leman (*Cuscuta lehmanniana*) va bir ustunli (*Cuscuta monogyna*) zarpechak urug‘larini Toshkent vilbyati sharoitida tuproqda, barg osti va o‘tlar orasida qishlagan urug‘larining unishi yuqori bo‘lib, 85 % va 73 % ga teng bo‘ldi (9-jadval).

Daraxt tepasida qishlab chiqqan zarpechak urug‘lari bahorda olib, undirilganda bu ko‘rsatkich 30 % va 18 % ga etdi. Daraxt tepasidan olingen leman va bir ustunli zarpechak urug‘larining unishini bunday past bo‘lishiga sabab, ularni ochiq joyda hasharot va mikroorganizmlar ta’sirida yoki qattiq sovuqhamda haroratni keskin pasayib yoki ko‘tarilib turishida bo‘lsa kerak.

